


84
465



JAHON XALQLARI ERTAKLARI

Hans Kristian ANDERSEN



DYUYMCHAXON
SANDIQ-SAMOLYOT
YO'LDOSH O'RTOQ






JAHON XALQLARI ERTAKLARI

Hans Kristian ANDERSEN



DYUYMCHAXON
SANDIQ-SAMOLYOT
YO'LDOSH O'RTOQ




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2019

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(4Dan)

A - 65

Andersen, Hans Kristian

Dyuymchaxon. Sandiq-samolyot. Yo'dosh o'rtoq: ertaklar. Hans Kristian Andersen / Rus tilidan Usmon Qo'chqor va Alisher Usmon tarjimalari. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. – 64 b.

ISBN 978-9943-20-546-8

"Jahon xalqlari ertaklari" turkumida tayyorlangan mazkur kitobchamiz butun dunyo bolalarining sevimli yozuvchisi – Hans Kristian Anderssenning mashhur ertaklaridan tarkib topgan.

"Dyuymchaxon", "Sandiq-samolyot", "Yo'dosh o'rtoq" – bu ertaklar allaqachon ekranlashtirilgan, jajji kitobxonlarimiz ertak voqealaridan balki xabardordirlar.

Shunday bo'ssa-da, kitobsevar bolajonlarimizni mutolaaga chorlash, ularga ma'naviy ozuqa berish maqsadida ushbu nashrni tayyorladik.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(4Dan)

Rus tilidan
Usmon Qo'chqor va
Alisher Usmon
tarjimalari

ISBN 978-9943-20-546-8

(*) Hans Kristian Andersen, "Dyuymchaxon. Sandiq-samolyot. Yo'dosh o'rtoq". "Yangi asr avlod", 2019-yil.

INVENTAR №	2301/2
ЗАРВУОТР	А. Калл

DYUYMCHAXON

Qadim zamonda bir ayol yashar ekan. Uning farzandi yo‘q, lekin farzandi bo‘lishini judayam orzu qilar ekan. Bir kuni u sehrgar kam-pirning huzuriga borib shunday debdi:

– Men bir qizalog‘im bo‘lishini juda-juda istayman, u jimitday kichkinagina bo‘lsayam mayliga!

– Bundan osoni yo‘q! – deb javob beribdi sehrgar kampir. – Manavi arpa donini ol. Bu sizlarning da-langizda o‘sadigan, parrandalarga beriladigan oddiy donlardan emas. Buni eltib gultuvakka ekib qo‘y. Nima bo‘lishini keyin ko‘rasan.

– Rahmat senga! – debdi ayol unga o‘n ikki cha-qqa berib.

So‘ng u uyiga kelib, arpa donini gultuvakka ekib qo‘yibdi.

Gultuvakka suv quyishi bilanoq maysa unib chiqibdi. Tuproqdan ikkita nafis barg va nozik poya bosh ko‘taribdi. Poyada esa lolaga o‘xshash kattagina g‘aroyib gul paydo bo‘libdi. Biroq hali uning gulbarglari qattiq tugilgan, g‘unchasi ochilmagan ekan.

– Naqadar chiroyli gul! – deya ayol uning rangin barglaridan o‘pib qo‘yibdi.

Xuddi shu lahzada g'uncha ichida nimadir qimir-lagandek bo'libdi va u ochilibdi. Bu chindan ham kattakon lola bo'lib, faqat uning gulkosasida tirik bir qizaloq o'tirgan emish. U judayam kichkina bo'lib, bo'yi atigi bir dyuym¹ kelar ekan, xolos. Shuning uchun ham ayol uning nomini Dyuymchaxon deb atabdi.

Chiroyli loklangan yong'oq po'chog'idan Dyuymchaxonga belanchak qilib beribdi. Parqu to'shak o'rniga bir necha binafsha to'shab, atirgulning gulbargini ko'rpa qilib beribdi. Kechasi ana shu belanchakda yotar, kunduzlari esa stol ustida o'ynab yurar ekan.

Ayol stol o'rtasiga suv solingan chuqurgina likopcha qo'yib, uning chetiga gullar terib chiqibdi. Ularning uzun novdalari suvgaga cho'mib turar, shuning uchun bu gullar anchagacha so'lib qolmay, atir taratib turaverar ekan.

Jajjigina Dyuymchaxonga bu suvli likopcha butun boshli dengiz bo'lib tuyular, bu dengizda u lola gulbargiga minib olganicha xuddi qayiqdagidek suzib yurar ekan. Eshkak o'rniga u ikkita oppoq ot tolasidan foydalanar ekan. Dyuymchaxon kun bo'yi o'zining ana shu g'aroyib qayiqchasida qo'shiqlar kuylaganicha likopchaning u tomonidan bu tomoniga suzib o'tar ekan. Uning ovozidek nafis ovozni hali hech kim eshitmagan ekan.

Dyuymchaxon o'z belanchagida uqlab yotgan kechalarning birida lang ochiq derazadan xonaga kattakon, qari, shilimshiq va badbashara bir baqa

¹ Dyuym – (25,5 mm).

kirib kelibdi. U deraza tokchaside dan stol ustiga sakrab tushibdi va atirgul gulbargi ostida yotgan Dyuymchaxonning belanchagiga baqrayibdi.

– Buncha yaxshi! – debdi bu qari baqa. – O‘g‘limga munosib xotin topilib qoldi.

U qizaloq yotgan yong‘oq po‘chog‘ini changalab olibdi-da, derazadan bog‘ga sakrabdi.

Bog‘ yonidan anhor oqib o‘tar, uning shundoq qirg‘og‘ida bir botqoqlik bor ekan. Ana shu yerda, qurbaqasallalar og‘ushida qari baqa o‘z o‘g‘li bilan yashar ekan. O‘g‘li ham xuddi onasidek – shilimshiq va badbashara ekan!

– Vaq-vaq, vaq-vaq, vaqa-vaqa-vaq-vaq! – deya olibdi xolos u yong‘oq po‘chog‘i ichida yotgan jajji qizaloqni ko‘rib.

– Ovozingni o‘chir! Mabodo uni uyg‘otib yuborsang, qochib ketadi, – debdi qari baqa. – Axir u pardan ham yengil-da. Yaxshisi, uni anhor o‘rtasiga olib borib, nilufar bargiga o‘tqazib qo‘yamiz, jimitday bu qizaloq uchun nilufar bargi butun boshli orolga teng keladi. U yerdan sirayam qochib ketolmaydi. Bu orada men ikkalangizga qurbaqasallalar dan ajoyib in yasab beraman.

Anhorda ko‘plab nilufarlar o‘sib yotar ekan. Ularning shapaloq-shapaloq yam-yashil barglari suvda suzib yurar ekan. Eng katta barg esa qirg‘oqdan juda olisda ekan! Baqa ana shu barg tomon suzib boribdi-da, uning ustiga qizaloq uxlab yotgan yong‘oq po‘chog‘ini qo‘yibdi.

Ertalab uyg‘organida sho‘rlik Dyuymchaxonning qanchalar qo‘rqib ketganini ko‘rsangiz! Qo‘rqmay

ham bo‘ladimi? Uning hamma tomonini suv qurshab olgan, qirg‘oq esa olisdan elas-elas ko‘rinar ekan. Dyuymchaxon qo‘llari bilan ko‘zlarini bekitib olganicha achchiq-achchiq yig‘labdi.

Qari baqa esa yo‘sinlar ustiga o‘tirib olganicha, o‘z uyini qamish va sarg‘aygan nilufarlar bilan bezatar, bu bilan o‘zining yosh keliniga yoq-moqchi ekan. Hammasi tayyor bo‘lgach, u irkit o‘g‘li bilan Dyuymchaxon o‘tirgan barg yoniga suzib kelibdi, ularning niyati qizaloqni karavotga o‘tqazib, o‘z uylariga olib ketish ekan.

Qari baqa qizning shundoq qarshisida suvgaga shal-payib olganicha shirin jilmayib debdi:

– Mana bu – mening o‘g‘ilcham! U sening ering bo‘ladi! Ikkalangiz biznikida, qurbaqasallalar og‘ushida maza qilib yashaysizlar.

– Vaq-vaq, vaq-vaq, vaqa-vaqa-vaq-vaq! – deya olibdi xolos uning o‘g‘ilchasi.

Baqalar po‘choqni olgancha suzib ketishibdi. Dyuymchaxon anhorning o‘rtasida, kattakon nilufar bargining ustida yolg‘iz qolganicha, achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kibdi – axir, u bu irkit baqanikida yashashni, uning qo‘lansa o‘g‘liga erga tegishni sirayam istamas ekan-da.

Suv ostida suzib yurgan baliqchalar qari baqa aytgan gaplarni eshitishibdi. Kuyov va uning onasini ular avval ham ko‘rishgan ekan. Endilikda esa kelinning qandayligini ko‘rish uchun suvdan boshlarini chiqazishibdi.

Dum-dumaloq ko‘zlar bilan Dyuymchaxon-ga nazar tashlagan bu baliqchalar darhol suvning

eng tubiga sho'ng'ib, endilikda nima chora ko'rish lozimligi haqida o'ylay boshlashibdi. Ana shunday ko'hlikkina, kichikkina bir qizaloqning suvdagi bir to'nka ostida, quyuq yo'sin-u qurbaqasalalar og'ushida anavi qo'lansa baqalar bilan birga yashashi baliqchalar uchun o'ta achinarli bir hol ekan. Bu insofdan emas-ku, axir! Butun anhordagi baliqchalar Dyuymchaxon o'tirgan nilufar yoniga yig'ilib kelib, bargning bandini g'ajib tashlashibdi.

Mana, oqibatda nilufar bargi oqim bo'y lab suzib ketibdi. Oqim juda tez bo'lib, barg shitob bilan ilgarilab borar ekan. Endi qari baqa ming urinsa ham Dyuymchaxonni quvib yetolmas ekan.

Dyuymchaxon suzgandan suzib boraveribdi, butalarga qo'nib olgan qushchalar uni ko'rib kuylay boshlashibdi:

– Qanchalar ko'hlikkina, kichikkina qizaloq!

Yengilgina oq kapalak Dyuymchaxon boshi uzra aylana-aylana nihoyat nilufar bargiga qo'nibdi – chunki bu jajjigina sayohatchi qizaloq unga judayam yoqib qolgan ekan.

Dyuymchaxon esa o'z ipak kamarini yechib, bir uchini kapalak ustiga tashlabdi, ikkinchisi ni bargga bog'labdi, shunda barg yanada jadalroq suzib ketibdi. Shu payt uning yonidan may qo'ng'izi uchib o'tibdi. U Dyuymchaxonni ko'rib qolib, uni changallaganicha daraxt tomon uchib ketibdi. Qizaloqsiz qolgan nilufar bargiga va u bilan birga kapalak ham tez orada ko'zdan g'oyib bo'libdi, chunki kapalak nilufar bargiga ipak kamар bilan mahkam bog'lab qo'yilgan ekan-da.

Mo‘ylov dor qo‘ng‘iz arrador oyoqlari orasiga siqib olib, osmon-u falakka ko‘tarilganida sho‘rlik Dyuymchaxon qanchalik qo‘rqib ketganini ko‘rsangiz! U oq kapalakka ham qattiq achinibdi. Endi uning ahvoli nima kecharkin? Agar u qutulib keta olmasa, ochlikdan halok bo‘ladi-ku!

May qo‘ng‘izining esa parvoysi palak ekan. U kattakon bir daraxtning shoxiga qo‘nib, yoniga Dyuymchaxonni ham o‘tqazibdi-da, unga, garchi sen may qo‘ng‘izlariga o‘xshamasang-da, menga juda yoqib qolding, debdi.

So‘ng shu daraxtda yashaydigan boshqa may qo‘ng‘izlari ularnikiga mehmonga kelishibdi. Ular Dyuymchaxonni qiziqib tomosha qilishibdi, ularning qizaloqlari esa hayrat bilan uning qanotlarini ko‘tarib ko‘rishibdi.

– Uning atigi ikkitagina oyog‘i bor ekan! – debdi ulardan biri.

– Uning hatto mo‘yovi ham yo‘q ekan! – debdi boshqalari.

– U naqadar zaif, ozg‘in! Puf desang belidan sinib ketadi, – debdi yana boshqa birlari.

– Odamzotga juda o‘xhab ketarkan-u, biroq ancha xunuk ekan, – degan xulosaga kelishibdi barcha qo‘ng‘izlar.

Hatto Dyuymchaxonni ko‘tarib kelgan may qo‘ng‘izining o‘ziga ham endilikda u xunuk ko‘rina boshlabdi va undan ajramoqchi bo‘libdi – qayoqqa ketsa ketaversin. U Dyuymchaxonni pastga olib tushib, moychechak ustiga o‘tqazib qo‘yibdi.

O‘zining bu qadar xunukligi alam qilib, Dyuymchaxon gul ustiga o‘tirganicha rosa yig‘labdi. Hatto may qo‘ng‘izlari ham uni quvib yuborishdi-ya!

Aslida esa u judayam yoqimtoy bo‘lib, dunyoda undan-da ko‘hlikroq qizaloqni topib bo‘lmash ekan.

Dyuymchaxon butun yoz bo‘yi kattakon o‘rmonda toq-tanho yashabdi. U o‘ziga o‘t-o‘lanlardan belanchak to‘qib olibdi va yog‘in-sochindan, quyosh taftidan panalash uchun uni qariqizning kattakon bargi ostiga osib qo‘yibdi. U har kuni gullar asalid dan yeb, har ertalab yaproqlarga ingan shabnam-dan ichib yuraveribdi.

Yoz shu tariqa o‘tib bo‘lib, kuz ham kirib kelibdi. Uzundan-uzoq qahraton qish nafasi sezila boshlabdi. Qushlar uchib ketishibdi, gullar so‘libdi, ostida Dyuymchaxon yashaydigan qariqiz bargi ham sarg‘ayib, qovjirabdi va quvurchadek buralib qolibdi.

Sovuq Dyuymchaxonning jon-jonidan o‘tib ketibdi. Ko‘ylakchasinining julduri chiqibdi, jajjigina, nozikkina qizaloq bunaqadasovqotmaydimi, axir! Qor ham yog‘a boshlabdi, Dyuymchaxon uchun har bir qor zarrasi bizning bir belkurak qorimizga teng ekan. Biz-ku katta odamlarmiz, uning esa bor bo‘y-basti atigi bir dyuym ekan. U quruq yaproqlar dan biriga o‘ranibdi, lekin bundan badani isimabdi, sho‘rlik shamolda tebranayotgan kuzgi barg kabi qalt-qalt titrar ekan.

Shunda Dyuymchaxon bu o‘rmonni tark etib, o‘ziga qishlik boshpana topmoqchi bo‘libdi.

U yashayotgan o‘rmon ortida kattakon dala bor ekan. Undagi g‘allani allaqachon yig‘ib olishgan,

faqat muzlagan tuproqda quruq xas-xashaklar dik-kayib turarkan, xolos.

Dala o'rmondan ham sovuqroq ekan, qovjirab qolgan dag'al somonpoyalar orasiga yetib olguncha Dyuymchaxon qotib qolibdi.

Nihoyat, u dala sichqonining iniga yetib olibdi. Inning og'zi o't-o'lan, xas-xashak ila hafsala bilan bekitilgan ekan.

Dala sichqoni iliqqina joyda to'q-farovon yashar: oshxona va ombori don bilan liq to'la ekan. Dyuymchaxon xuddi tilanchi kabi uning ini bo'sag'asida to'xtab qolibdi va hech bo'lmasa bir bo'lak arpa doni berishlarini o'tinib so'rabdi – axir u ikki kundan beri tuz totmagan ekan-da.

– Voy sho'rlikkina! – debdi dala sichqoni (chindan ham u saxiy kampir ekan). – Qani beri kel-chi, qani mundoq isinib, men bilan birga tamaddi qilib ol!

Dyuymchaxon inga tushib, isinib, ovqatlanib olibdi.

– Sen menga yoqib qolding, – debdi unga sichqon munchoq kabi yaltirab turgan qop-qora ko'zchalarini tikib. – Qish ichi menikida qola qol. Men seni bo-qaman, sen esa uyimga bamaylixotir joylashib olib,



menga ertaklar aytib berasan – men ularni o‘lguday yaxshi ko‘raman.

Xullas, Dyuymchaxon shu yerda qolibdi.

U qari sichqon buyurgan barcha yumushlarni ado etar, bu issiqliqina ovloq inda harholda yomon yashamas ekan.

– Yaqinda biznikiga mehmon keladi, – debdi kunlarning birida dala sichqoni. – Haftada bir bor men qo‘sнимни yo‘qlab boraman. U juda badavlat, mendan ancha yaxshi yashaydi. Uning yer ostida kattakon uyi bor, o‘zi shunaqangi po‘stin kiyib yuradiki, bunaqasini sen umringda ham ko‘rmagan bo‘lsang kerak, ajoyib qop-qora po‘stin! Qizaloq, sen unga tega qol! Pichog‘ing moy ustida bo‘ladi! Attangki, u ko‘r, sening ko‘hlikkina husningni tomosha qila olmaydi. Lekin evaziga sen o‘zing bilgan eng yaxshi ertaklaringni aytib berasan.

Biroq Dyuymchaxon bu boy qo‘sning turmushga chiqishni sirayam xohlamas, chunki bu badqovoq yer osti fuqarosi – ko‘rsichqon ekan.

Chindan ham ko‘p o‘tmay bu qo‘sni ularnikiga mehmon bo‘lib kelibdi.

Haqiqatan ham u qora baxmaldan judayam ajoyib po‘stin kiyib olgan ekan. Buning ustiga, dala sichqonining aytishicha, u o‘qimishli va juda boy bo‘lib, uyi oddiy sichqonlarnikidan yigirma barobar katta ekan. Biroq uning quyoshga aslo toqati yo‘q, barcha gullarni so‘kkani-so‘kkani ekan. Buning ajablanarli joyi yo‘q! Axir u umrida hech qachon birorta gulni ham ko‘rmagan ekan-da.

Mezbon sichqon Dyuymchaxonga muhtaram mehmon uchun qo‘sniq kuylab berishni buyuribdi, qizaloq

istar-istamas ikkita qo'shiq aytibdi, shunaqangi jozi-bali kuylabdiki, ko'rsichqon bundan jo'shib ketibdi. Biroq hech narsa demabdi – u shundoq takabbur, dimog'dor, kamgap ekan...

Bu mehmondorchilikdan so'ng ko'rsichqon o'z uyidan dala sichqonining inigacha yer osti yo'lagi kavlabdi va kampir bilan uning tutingan qizini bu yer osti lahmi bo'ylab sayrga taklif etibdi.

U tumshug'iga bir bo'lak chirindi tishlab olibdi-da, yo'lni yoritganicha oldinga tushibdi, chunki bu chirindi zulmatni xuddi shamdek yoritib turar ekan.

Yo'l yarimlaganda ko'rsichqon to'xtab bunday debdi:

– Bu yerda qandaydir bir qush yotibdi. Lekin bizning undan qo'rqa digan joyimiz yo'q – u o'lib qolgan. Buni o'zlarigiz ham ko'rishlarigiz mumkin.

Ko'rsichqon o'zining yapasqi tumshug'i bilan to tuynuk hosil bo'limguncha yo'lak shiftini kurayveribdi. Yo'lakka kunduzgi yorug'lik tushibdi va Dyuymchaxon tepada o'lib yotgan qaldirg'ochni ko'ribdi.

Sho'rlik qaldirg'och ehtimol sovuqdan halok bo'lgandir. U qanotlarini tanasiga qattiq siqib, bosh va oyoqlarini patlari ichiga tiqib olgan ekan.

Dyuymchaxon unga qattiq achinibdi. U bu sho'x, uchag'on qushlarni juda yaxshi ko'rар, chunki ular yoz bo'yi qizaloqqa ajoyib qo'shiqlar aytib berishgan, uning o'zini ham kuylashga o'rgatishgan ekan-da. Biroq ko'rsichqon o'zining kalta panjalari bilan qaldirg'ochni turtganicha javrabdi:

– Ha, daming o'chib qoldimi? Hushtakvozliging tugadimi? Ana shunaqa bo'ladi! . Men bunday

notavon qushcha bo'lishni istamagan bo'lardim. Havoda chirpirab yurib vijirlashdan boshqasini bilmaydi. Qish kelsa, holi ne kechadi? O'ladi-qoladi. Yo'q, mening bolalarim qishningsovug'ida ochyalang'och o'lib ketadigan bo'lmaydi.

– Haqqast rost, – debdi dala sichqoni. – Behuda vijir-vijir qilishdan ne foyda? Qo'shiq bilan qorning to'yib, vijirlashdan taning ilib qolmaydi-ku, axir!

Dyuymchaxon sukut saqlabdi. Ammo ko'rsichqon va dala sichqoni qushga orqa o'girishi bilan u darhol qaldirg'och tomon egilib, patlarini yiribdi-da, uning yumuq ko'zlaridan o'pib qo'yibdi.

"Ehtimol, bu yoz bo'yi yoqimli qo'shiqlar aytgan o'sha qaldirg'ochdir, – deb o'ylabdi u. – Menga qancha-qancha shodliklar baxsh etgan eding, aziz qaldirg'ochginam!"

Shu payt ko'rsichqon shiftdagi tuynukni tag'in bekitib qo'yibdi. So'ng chirindini tishlab olganicha qari sichqon va Dyuymchaxonni o'z uyiga boshlab boribdi.

Dyuymchaxon kechasi uxlay olmabdi. O'midan turib, quruq xashaklardan kattakon gilam to'qibdi va yer osti yo'lagiga tushib borganicha o'lik qaldirg'ochning ustini gilam bilan yopib qo'yibdi. So'ng u dala sichqonining omboridan iliqqina pat, qup-quruq momiq topib, muzlab yotgan tuproq badaniga botmasligi va sovuq qotmasligi uchun qaldirg'ochga uyasimon bir joy hozirlabdi.

– Alvido, aziz qaldirg'ochginam, – debdi Dyuymchaxon. – Alvido! Daraxtlar yashnab turgan, quyosh saxovat bilan qizdirgan paytlarda, yozda menga aytgan g'aroyib qo'shiqlaring uchun rahmat senga.

Shunday deya u qushcha ko'ksidagi ipakdek mayin patlarga bosh qo'yibdi.

Qo'qqisdan u qaldirg'och ko'ksida nimadir bir maromda "Duk-duk! Duk-duk!" urib turganini eshitib qolibdi. Avval sekin eshitilgan bu tovush tobora ko'tarila boribdi. Bu qaldirg'ochning urib turgan yuragi ekan. U o'l'magan, faqat qattiq sovuqdan karaxt bo'lib qolgan ekan, endi esa tanasi ilib, unga jon kiribdi.

Hamisha qishda qaldirg'ochlar galasi issiq o'lka-larga uchib ketishadi. Kuz hali daraxt yaproqlarini yulqib olishga ulgurmay turib, sayyor qushlar olis yo'l hozirligini ko'rib qo'yishadi. Mabodo ulardan biri ortda qolsa yoki kechiksa, ignadek izg'irin uning nozik vujudini darhol muzlatib qo'yadi. U karaxt bo'lib, yerga o'likdek qulab tushadi va qorga ko'milib qoladi.

Dyuymchaxon ilitgan bu qaldirg'och ham ana shunday ahvolga tushib qolgan ekan.

Qush tirik ekanligini bilgan qizaloq ham sevinib, ham qo'rqib ketibdi.

Qo'rqlmay ham bo'ladimi? Chunki o'zining bo'y-bastiga nisbatan qaldirg'och juda ulkan qush bo'lib tuyular ekan-da.

Biroq baribir Dyuymchaxon o'zini o'nglab olib, to'qigan gilami bilan qaldirg'ochni yaxshilab o'rab qo'yibdi, so'ng chopib borib uyidan o'zi ko'rpa o'mida o'ranib yotadigan yalpiz bargini olib kelibdi va qushning boshi ostiga buklab qo'yibdi.

Keyingi kechada Dyuymchaxon yana sekingina qaldirg'och yoniga kelibdi. Qush ancha jonlanib qol-

gan bo'lsa-da, biroq hali madori yo'q ekan, qizchani ko'rish uchun ko'zlarini zo'r-bazo'r olibdi.

Dyuymchaxon uning oldiga bir bo'lak chirindi tut-ganicha turar, chunki uning boshqa fonusi yo'q ekan.

– Rahmat senga, jajjiginam! – debdi xasta qal-dirg'och. – Men juda yaxshi isinib oldim! Hademay butunlay sog'ayib ketaman, yana kunning ko'zida uchib yuraman.

– Oh, – debdi Dyuymchaxon, – hozir shunaqangi sovuqli, qor yog'ib yotibdi! Yaxshisi, sen issiqqina to'shagingda yotaver, men esa seni parvarishlab turaman.

U qaldirg'ochga arpa doni va gul yaprog'ida suv olib kelibdi. Qaldirg'och yeb-ichibdi, so'ng tog'olcha daraxtiga urilib qanoti jarohat olganini, shuning



uchun boshqa qaldirg'ochlar bilan issiq o'lkalarga uchib keta olmay qolganini, bu orada qish tushib, havo sovib ketganini va natijada yerga qulab tushganini qizaloqqa so'zlab beribdi.

So'ng nima bo'lganini qaldirg'och eslai olmabdi. U hatto bu joyga, yer ostiga qanday tushib qolganini ham bilmas ekan.

Butun qish bo'y়i qaldirg'och ana shu yerosti yo'lagida yashab qolibdi, Dyuymchaxon uni parvarish qilibdi, taom, suv berib turibdi. Bu haqda ko'rsichqonga ham, dala sichqoniga ham g'ing demabdi – chunki ularning ikkalasi ham qushlarni yoqtirishmas ekan-da.

Bahor kelib, quyosh borliqni qizdira boshlaganida Dyuymchaxon bir paytlar ko'rsichqon shiftdan o'ygan tuynukni ochib yuboribdi, yer ostiga iliq quyosh nurlari oqib kiribdi.

Qaldirg'och qizcha bilan xayrlashibdi, qanotlari ni parvozga shaylabdi, lekin uchib ketish arafasida Dyuymchaxondan, men bilan birgalikda ozodlikka chiqishni istamaysanmi, deb so'rabdi. Istasa, qizaloq uning yelkasiga o'tirib oladi-da, ikkalasi yam-yashil o'rmon tomon uchib ketishadi.

Lekin qari dala sichqonini tashlab ketgani Dyuymchaxonning ko'zi qiymabdi, o'zi bo'lmasa kampir juda zerikib qolishini u yaxshi bilar ekan-da.

– Yo'q, menga mumkin emas, – debdi u xo'rsinib.

– Na iloj, alvido! Alvido, mehribon qizaloq! – deya vijirlabdi qaldirg'och.

Dyuymchaxon uning ortidan uzoq termilib qolibdi, ko'zlaridan tomchi-tomchi yosh oqib tushibdi –

chunki u ham kengliklarni qo‘msar, buning ustiga, qaldirg‘och bilan ajralish juda og‘ir ekan.

– Chiv-chiv-chiv, chivich-chiv! – deya qichqiribdi so‘nggi bora qaldirg‘och va yam-yashil o‘rmonga kirib g‘oyib bo‘libdi.

Dyuymchaxon esa sichqon inida qolaveribdi.

Kundan kunga uning yashashi og‘irlashib, zeriki-shi ortib boraveribdi. Qari sichqon unga indan uzoq-roq ketishga ruxsat bermas, uya atrofidagi maydon-da esa baland-baland yo‘g‘on boshoqpoyalar o‘sib yotar, ular Dyuymchaxonga chakalak o‘rmon bo‘lib tuyular ekan.


Kunlarning birida qari sichqon Dyuymchaxonga gap olib qolibdi:

– Qo‘shnimiz, keksa ko‘rsichqon senga unash-gani keladi. Endi senga sep tayyorlash kerak. Sen ulug‘vor zotga tegasan, shuning uchun hamma narsang ortig‘i bilan bo‘lishi kerak.

Natijada Dyuymchaxon kun bo‘yi narsa to‘qib o‘tiradigan bo‘libdi.

Qari sichqon to‘rtta o‘rgimchakni yollabdi. Ular ke-cha-yu kunduz sichqon inining burchak-burchaklariga o‘trib olganlaricha jimgina o‘z ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishar – har xil matolar to‘qir, nihoyatda nafis tolalardan to‘rsimon liboslar tayyorlashar ekan.

Ko‘rsichqon esa har kechqurun mehmonga kelib, hademay yoz tugashi, quyosh yerni isitmay qo‘yishi, tuproq tag‘in yumshoq va g‘ovak bo‘lib qolishi haqidá vaysagani-vaysagan ekan. Ana o‘shanda to‘yimiz bo‘ladi, der ekan u Biroq Dyuymchaxon g‘ussaga



botib nuqul yig'lar: chunki u umuman turmushga chiqishni, ayniqla, mana bunaqangi xo'ppasemiz ko'rsichqonga tegishni sira-sira istamas ekan.

Har tong quyosh chiqayotganida, har oqshom kun botayotganida Dyuymchaxon sichqon inining og'ziga chiqib o'tirar ekan. Ba'zan sho'x shabada boshoqlarni tebratib o'tar, shunda qizaloqqa osmonning bir parchasini ko'rish nasib etar ekan.

"Bu yer naqadar yorug", erkinlikda bo'lish naqadar yaxshi!" – deb o'ylar ekan Dyuymchaxon va nuqul qaldirg'och yodiga tushib ketar ekan. U o'sha qushcha bilan uchrashishni juda-juda istar, lekin bu dalada qaldirg'ochning qorasi ham ko'rinmas ekan. Ehtimol u olis-olislarda, moviy daryo yuqorisidagi yam-yashil o'rmonda yayrab uchib yurgandir...

Nihoyat, kuz ham kelibdi. Dyuymchaxonning sepi tayyor bo'libdi.

– To'rt haftadan so'ng sening to'ying bo'ladi! – debdi unga dala sichqoni.

Dyuymchaxon esa yig'laganicha diqqinafa ko'rsichqonga ko'ngli yo'qligini aytibdi.

Qari sichqonning jahli chiqib ketibdi.

– Bekor gap! – debdi u. – O'jarlik qila ko'rma. Yo'qsa tishlarim ostida qiyma-qiyima bo'lasan. Senga ko'rsichqondek er bormi? Bir po'stining o'zi qancha dunyo turadi! Hatto qirolning o'zida ham bunaqangi po'stin yo'q! Yerto'lsasi ham liq to'la. Peshaningga shunday er bitganiga shukur qilsang-chi!

Oxiri to'y kuni ham yetib, ko'rsichqon o'z qaylig'ini olib ketgani kelibdi. Demak, endi Dyuymchaxon u bilan qop-qorong'i inga ketishi, chuqr yer qa'rida ya-

shab qolishi, na yorug' dunyoni, na charog'on quyoshni hech qachon ko'rmasligi kerak – axir ko'rsich-qonning yorug' dunyoga ham, quyoshga ham toqati yo'q-da! Lekin cheksiz osmon, alvon quyoshdan manguga ajrash sho'rlik Dyuymchaxon uchun juda og'ir ekan! Dala sichqonining inida esa u garchi olisdan bo'lса ham ulardan bahra olib turar ekan.

Mana, u yorug' dunyoga so'nggi bor nazar tashlash uchun tashqari chiqibdi.

Daladan g'alla allaqachon yig'ib olingan, tag'in avvalgidek yalang'och, qovjiroq boshoqpoyalar dik-kayib turar ekan. Qizaloq sichqon inidan nariroq borib, quyoshga qo'llarini cho'zibdi:

– Alvido, quyoshjon, alvido!

So'ng u mittigina qizil gulchani ko'rib qolib, uni quchganicha debdi:

– Aziz gulginam, agar qaldirg'ochni ko'rib qolsang, unga Dyuymchaxondan salom deb qo'y.

– Chiv-chiv-chiv, chivich-chiv! – degan ovoz eshitilibdi qo'qqisdan uning tepasida.

Dyuymchaxon bosh ko'tarib qaragan ekan, dala uzra uchib yurgan qaldirg'ochni ko'rib qolibdi. Qaldirg'och ham qizaloqni ko'rib qolib suyunib ketibdi. U yerga qo'nibdi, Dyuymchaxon yig'laganicha o'z o'rtog'iga keksa, badqovoq ko'rsichqonga tegishni va hech qachon quyosh shu'iasi tushmaydigan yer qa'rida u bilan birga yashashni sirayam xohlamasligini hikoya qilib beribdi.

– Sovuq qish bostirib kelyapti, – debdi qaldirg'och, – endi men uzoq-uzoqlarga, olis o'lkalarga uchib ketaman. Men bilan ketishni istaysanmi? Istan sang,

mening yelkamga chiqib ol, faqat o'zingni kamar bilan menga mahkam bog'lab qo'y, ikkimiz bu irkit ko'rsichqonni tark etamiz, olis-olislarga, moviy dengizlar ortidagi issiq o'lkalarga, quyosh charaqlab turgan, doimiy yoz hukmron bo'lgan, gullar hamisha ochilib yotadigan yurtlarga uchib ketamiz. Men bilan ucha qol, jajjiginam! Qop-qorong'i, sovuq o'rada muzlab yotganimda mening hayotimni sen saqlab qolgan eding-ku, axir.

– Ha, ha, albatta, men sen bilan uchib ketaman!
– debdi Dyuymchaxon.

U qaldirg'ochning ustiga chiqib, o'zini uning eng katta va baquvvat pariga bog'lab qo'yibdi.

Qaldirg'och o'qdek uchib ko'kka ko'tarilibdi va qorong'i o'rmonlar, moviy dengizlar va qor qoplab yotgan yuksak tog'lar ustidan parvoz etib ketibdi. Yuksaklik juda sovuq bo'lgani uchun Dyuymchaxon qaldirg'ochning iliq patlari orasiga bekinib olib, tubandagi manzaralardan zavqlanish uchun faqat boshini chiqarib ketaveribdi.

Mana, nihoyat issiq o'lkalarga ham yetib kelihibdi! Bu yerlarda quyosh bizdagidan ko'ra mo'l-ko'l nur sochar, osmon ham ancha yuksak, chetan devorlar bo'ylab yam-yashil uzumzorlar chirmashib ketgan ekan. Butazorlarda apelsin va limonlar pishib yotar, so'qmoqlarda esa katta-katta rangin kapalaklarni tutish uchun sho'x-shodon bolalar yugurib yurishar ekan.

Biroq qaldirg'och yanada olislab ketaveribdi.

Shaffof moviy ko'l qirg'og'ida, tarvaqaylab ketgan daraxtlar orasida qadimiylar bir oq marmar sa-

roy bor ekan. Uning yuksak ustunlariga tok butalari chirmashib ketgan, tepada, tom ostida esa qushlar in qurgan ekan. O'sha inlarning birida shu qaldirg'och yashar ekan.

– Mana shu mening uyim! – debdi u. – Sen o'zingga eng chiroyli gulni tanlagin. Men seni uning kosasiga o'tqazib qo'yaman, maza qilib yashayverasan.

Dyuymchaxon suyunganidan chapak chalib yuboribdi.

Pastda, o'tlar orasida oq marmar parchalari yotar, bu ustunlardan birining peshtoqidan ko'chib tushib uchga bo'linib ketgan marmar bo'laklari ekan. Ular orasida qordek oppoq yirik gullar o'sib yotar ekan.

Qaldirg'och pastlab kelib, qizchani shapaloqdek gulbargga o'tqazib qo'yibdi. Bu qanday mo'jiza bo'ldi ekan? Gulkosada xuddi billur yoki tonggi shabnam kabi tiniq va musaffo bir mitti odamcha o'tirar ekan. Uning yelkasida nafis qanotlari pirpirab turar, boshiga yaraqlab turgan mittigina oltin toj kiyib olgan, bo'yi esa Dyuymchaxonni-kidan oshmas ekan. Bu elflar qiroli ekan.

Qaldirg'och gulga uchib kelganini ko'rib elf qat-tiq qo'rqib ketibdi. Chunki u mittigina bo'lib, qaldirg'och esa juda haybatli ekan!

Biroq qaldirg'och Dyuymchaxonni gulga o'tqazib qo'yib, o'zi uchib ketganini ko'rgach, u nihoyatda quvonib ketibdi! U hali hech qachon o'zi tengi bunday go'zal qizchani ko'rmagan ekan. U ta'zim qilganicha qizaloqning ismini so'rabdi.

– Ismim Dyuymchaxon! – deb javob beribdi qizaloq.
– Azizam Dyuymchaxon, – debdi elf, – sen men-
ga turmushga chiqishga, gullar qirolichasi bo'lishga
rozimisan?

Dyuymchaxon bu xushbichim elfga nazar tash-
labdi. Oh, bu yigitcha qari baqaning ahmoq, irkit
o'g'liga yoki baxmal po'stinli ko'rsichqonga sirayam
o'xshamas ekan! Va u darhol rozi bo'libdi.

Shunda har bir guldan bir-birini quvalab elflar
uchib kelishibdi. Ular Dyuymchaxonni qurshab olib,
har xil sovg'alar hadya etishibdi.

Bu sovg'alar ichida xuddi ninachinikiga o'xhash
bir juft yengilgina harir qanot unga nihoyatda yo-
qib qolibdi. Uni Dyuymchaxonning yelkasiga taqib
qo'yishibdi va endilikda u ham guldan gulga uchib
boradigan bo'libdi. Ana xursandchilig-u mana xur-
sandchilik!

– Endi seni Dyuymchaxon deb atashmaydi. Biz
elflarning ismlarimiz boshqacha, – debdi Dyuym-
chaxonga qirol. – Biz seni endi Mayya deb ataymiz!

Shunda gul bargidek yengil va ravshan barcha
elflar gullar uzra davra olib o'yinga tushib ketishibdi.

Qaldirg'och esa tepada, o'z uyasida o'tirib olib,
bilganicha qo'shiq kuylay boshlabdi.

Butun iliqqina qish bo'yi elflar u aytgan qo'shiqlar
ohangida o'yinga tushishibdi. Sovuq o'lkalarga ba-
hor kelganida esa qaldirg'och o'z vataniga qaytish
tadorigini ko'ra boshlabdi.

– Xayr, xayr! – deya vijirlabdi u jajji o'rtog'iga
va dengizlar, tog'-u o'rmonlar osha Daniyaga uchib
ketibdi.

U yerda ajoyib ertaklar so'zlay oladigan bir kishi bo'lib, derazasining ustida qaldirg'ochning mo'jazgina uyasi bor ekan. Qaldirg'och u kishiga Dyuymchaxon haqida hikoya qilib beribdi, biz esa bu voqealarni ana o'sha kishidan bilib oldik.



SANDIQ-SAMOLYOT

Qadim zamonda bir savdogar bo‘lgan ekan, u shu qadar boy ekanki, butun boshli ko‘chaga va hatto tuyulishga ham kumush tangalarni toshdek terib chiqishi mumkin ekan; biroq u bunday qilmas, pullarini boshqacha sarflashni yaxshi ko‘rar, ya’ni agar bir tanga sarflasa, uni o’n tanga qilib undirib olar ekan. Ana shunaqangi savdogar ekan u! Qo‘qqisdan u o‘lib qolibdi.

Uning barcha pullari o‘g‘liga qolibdi, o‘g‘li esa shod-xurram yashay boshlabdi: u har kecha maskaradga borar, kredit qog‘ozlaridan varrak yasab uchirar, hovuz atrofiga tosh o‘rniga tilla yotqizib chiqar ekan. Tabiiyki, tezda bu pullar g‘alvirdan to‘kilgan suvdek tugab, kattakon merosdan bolap-qirning qo‘lida atigi to‘rtta qora chaqa, egnida eski kamzul va bitta tufli qolibdi, xolos. Endilikda do‘satlari ham uni tanib tanimaslikka olishar, hatto ko‘chada ham u bilan birga yurishga uyalishar ekan; faqat bittagina saxiy do‘sti bo‘lib, u bolakayga: “Lash-lush-laringni solib qo‘yarsan”, deya bitta sandiq beribdi. Bu juda yaxshi ekan-ku, biroq endilikda bolaning hech qanaqangi lash-lushi qolmagan ekan, shuning uchun ham sandiqning ichiga uning o‘zi kirib olibdi.

Bu sandiq oddiy sandiqlardan emas ekan. Uning qulfini bossa, sandiq havoga ko‘tarilar ekan. Savdogarning o‘g‘li ham xuddi shunday qolibdi. Qulfini

shundoq bosgan ekan, sandiq tomning mo'risiga-cha ko'tarilibdi, so'ng esa bulutlarga qarab parvoz qilibdi, faqat uchayotganda sandiqning osti titrab turar ekan! Shuning uchun ham savdogarning o'g'li qattiq qo'rqib ketibdi, agar sandiq parchalanib ketadigan bo'lса, bolakay chirpirak bo'lib yerga qulab tushar ekan-da! Yo'g'-e, xudo saqlasin! Shunday qilib u Turkiyaga uchib boribdi, sandig'ini o'rmon ichidagi xazonlar orasiga ko'mib qo'yibdi-da, o'zi shaharga ravona bo'libdi, bu yerda u hech qanday o'ng'aysizlik sezmas, chunki Turkiyada barcha kishilar kamzul va tuqli kiyib yurar ekan-da. Ko'cha-da u chaqaloq ko'tarib olgan bir enagaga duch kelib, undan so'rabdi:

– Menga qara, hoy turk enaga! Shaharning qoq o'rtasidagi bu qanday hashamatli saroy bo'ldi o'zi, derazasi buncha baland?

– Unda malika yashaydi! – deb javob qilibdi enaga.
– U o'z qaylig'i tufayli baxtsiz bo'ladi deb bashorat qilingan; shuning uchun ham uning huzuriga qiro bilan qirolichadan boshqa hech kim chiqsa olmaydi.


– Rahmat, – debdi savdogarning o'g'li va o'rmon-ga qaytib borib, sandig'iga o'tiribdi-da, to'ppa-to'g'ri saroy tomiga uchib kelib, derazadan malikaning huzuriga kiribdi.

Malika divanda shunaqangi chiroyli uxlab yotgan ekanki, bola uni o'pib olishdan o'zini tiya olmabdi. Malika uyg'onib qolib, juda qo'rqib ketibdi, lekin savdogarning o'g'li, men sening huzuringga osmondan uchib kelgan turk tangrisi bo'laman, degan ekan, bu malikaga juda yoqib qolibdi.

Ular yonma-yon o'tirishibdi, bola malikani ta'rif-lab ertaklar ayta boshlabdi: sening ko'zlarining xayoliy parilar cho'milib turgan bir juft qora dengiz, oppoq peshonang esa qorli tog' cho'qqilaridagi ajoyib suratlar osib qo'yilgan koshonalarga o'xshaydi, debdi u; oxirida odamlarga jajjigina yoqimtoy chaqaloqlarni olib keladigan laylak haqida hikoya qilibdi.

Ha, bular judayam ajoyib ertaklar ekan! So'ng u malikaga uylanmoqchi bo'libdi, malika ham darhol rozilik beribdi.

– Faqat siz bu yerga shanba kuni kelishingiz kerak! – debdi malika. – O'sha kuni mening huzurimga qirol bilan qirolicha choy ichgani kelishadi. Ular mening turk tangrisiga turmushga chiqishimni eshitib rosa xursand bo'lishadi, faqat siz ularga qiziqroq ertaklar aytib berishga harakat qiling, chunki mening ota-onam ertaklarni juda yaxshi ko'rishadi. Onam jiddiy, ibratlari ertaklarni sevsa, otam quvnoq, kulgili ertaklarni yoqtiradi.



– Men ham ertaklardan boshqa hech qanaqangi to‘y sovg‘asi olib kelmayman, – debdi savdogarning o‘g‘li. Shu tariqa ular ajralishibdi; xayrlashuv oldidan malika unga boshdan-oyoq tilla tangalar bilan bezatilgan bir qilich sovg‘a qilibdi, bolaga ham xudi shu narsa yetmay turgan ekan.

U shu zahoti uchib borib o‘ziga yap-yangi kamzul sotib olibdi, so‘ng esa ertak to‘qish uchun o‘rmonga parvoz qilibdi; bola shanbagacha ertak to‘qishi kerak, bu esa u qadar oson ish emas ekan-da.

Mana, nihoyat, ertak ham tayyor bo‘libdi, shu orada shanba kuni ham yetib kelibdi. Qirol, qirolicha va barcha saroy a‘yonlari malikaning huzuriga to‘plani-shibdi. Choy tayyorlashga amr etib qo‘yilgan ekan, savdogarning o‘g‘lini dabdaba bilan kutib olishibdi.

– Qani, bizga birorta ertak aytib ber-chi! – debdi qirolicha. – Faqat jiddiyroq, ibratli ertaklardan bo‘lsin.

– Kulgiliroq bo‘lsa ham mayli, – deya qo‘shib qo‘yibdi qirol.

– Bo‘pti, – deya ertagini boshlabdi savdogarning o‘g‘li. – Unda yaxshilab qulooq soling! Bor ekan-da, yo‘q ekan, oliy tabaqadan bo‘lgani bilan faxrlanadigan oltingugurtli bir quti gugurt bo‘lgan ekan: uning ajdodi, ya‘ni barcha qarindosh-urug‘lari o‘rmondag‘i eng katta, eng keksa qarag‘aydan kelib chiqqan ekan. Endilikda bu gugurtlar tokchada chaqmoqtosh bilan eski temir qozon o‘rtasida yotgancha qo‘sniligiga o‘z bolaliklari haqida hikoyalar aytishar ekan.

– Ha, biz yosh va yam-yashil bo‘lganimizda jundayam zo‘r yashar edik (biz o‘shanda chindan ham yam-yashil edik-da!), – der ekan ular. – Har

kuni ertalab va kechqurun billur choy, ya’ni shabnam ichar edik, kunlarimiz juda yorug’, ravshan bo’lib, boshimizdan quyosh nur sochib turar, qushlar qo’shiqlar aytib berishar edi. Biz boy xonadonga mansub ekanimizni juda yaxshi bilar edik: yirik bargli daraxtlar faqat yozdagina kiyinishar, bizning esa qishda ham kiyishga yetadigan yam-yashil liboslarmiz bor edi. Biroq daraxt kesuvchilar keliishi bilanoq katta inqilob boshlandi! Natijada bizning oilamiz ham butun jahonga tumtaraqay bo’lib ketdi. Oila boshlig‘i bo’lmish daraxtimizning tanasi ajoyib bir kemada grot-machtalik² o’rnini egalladi, endilikda agar istasa butun dunyo bo’ylab sayohat qilishi mumkin; shoxlarimiz ham har tomonga tarqab ketdi, bizning chekimizga esa shamdondagi shamlarni yoqib turish xizmati tushdi. Shuning uchun ham biz aslzodalar oshxonaga tushib qoldik.

– Mening taqdirim esa butunlay boshqacha bo’lgan! – deya gap boshlabdi gugurt yonida turgan qozon. – Dunyoga kelgan kunimdanoq meni tinmay tozalashadi, qirtib-artib olovga qo’yishadi. Faqat tirikchilik uchun kuyib-pishaman, rostini aytganda, men bu xonadonda birinchi o'rinda turaman. Agar ixtiyor qilsam, ovqatdan so'ng tozalanib olib, yon-verimdagい o'rtoqlarim bilan shirin suhabatlar quraman. Har zamonda hovliga chiqib turadigan chelakni aytmaganدا, bizning hammamiz uy bekalari hisoblanamiz; har xil yangiliklarni ham masalliq tashiydigan savatdan bilib olamiz, biroq u hokimiyat va xalqqa juda keskin

² Grot-machta – yelkanli kemada: o’rtadagi eng baland machta.

munosabat bildiradi! Uning gaplarini eshitib yaqinda eski xurmacha qo‘rqidan tokchadan qulab tushib, parcha-parcha bo‘lib ketdi. Ha, sizga aytsam, savatning bir oz yengiltakligi bor!

– Rosa ezmalanding-da! – debdi qo‘qqisdan chaqmoqtosh va kremniyga³ shunaqangi urilibdiki, uchqunlar chaqnab ketibdi. – Yaxshisi, bir o‘tirish tashkil qilmaymizmi?

– To‘g‘ri, oramizda kimning hammadan ko‘ra ko‘proq aslzoda ekani haqida gaplasha qolaylik! – deyishibdi gugurt cho‘plari.

– E, yo‘q, men o‘z-o‘zim haqida gapirishni yoqtirmayman, – debdi sopol kosa. – Shunchaki suhbatlashib o‘tira qolaylik. Men barchamiz, har birimiz uchun tanish va tushunarli bo‘lgan hayot haqidagi biror narsani aytib bera qolay. Xullas, eshiting: ona dengiz qirg‘og‘ida, qora qayinlar soyasida...

– Boshlanishi zo‘r ekan! – deyishibdi likopchalar. – Mana endi xuddi ta’bimizdagiday voqeani eshitadigan bo‘ldik.

– Mening yoshligim o‘sha yerda, ahil bir oilada o‘tgan. U yerda mebellarni artishar, pol yuvishar, deraza pardalarini har ikki haftada almashtirib turishardi.

– Judayam qiziqarli hikoya qilyapsiz! – debdi pol cho‘tkasi. – Bu hikoyamizdan ayol kishining hidi kelib, orastalik sezilib turibdi.

– To‘p-to‘g‘ri! – debdi chelak va hatto mammun bo‘lganidan polga suv sachratgancha sakrab ketibdi.

³ Ilgarilar chaqmoqtoshni kremniy metaliga urib uchqun chiqarishgan va shu tariqa olov yoqishdan.

Sopol kosa o‘z hikoyasini davom ettiribdi, bu hikoyaning oxiri ham xuddi boshi kabi juda qiziq ekan.

Likopchalar zavqlanganlardan chaqara-chuqur qilib silkinishibdi, pol cho‘tkasi esa tuproq to‘ldirilgan quti ichidan bir bo‘lak yam-yashil petrushkani uzib olib sopol kosaga taqib qo‘yibdi; bu bosh-qalarning g‘ashiga tegishini u yaxshi bilar ekan, lekin shu zahoti: “Agar men bugun sopol kosaga petrushkadan toj kiydirgan bo‘lsam, ertaga u men-ga toj kiydiradi!” – deb o‘ylabdi u.

– Endi biz o‘ynab beramiz! – degancha otashkuraklar raqsga tushib ketibdi. Yo tavba, ular goh u oyoqlarini, goh bu oyoqlarini shu qadar baland ko‘tarishar ekanki! Bir burchakda turgan eski kursining jildi bu tomoshaga chiday olmay yorilib ketibdi!

– Bizga ham toj kiydirishadimi? – deb so‘ragan ekan otashkuraklar, ularga ham shu zahoti toj kiydirib qo‘yishibdi.



So'ng samovarning navbatи kelibdi; u qo'shiq aytib berishi kerak ekan. Lekin samovar, mening ichim qaynab tursagina qo'shiq ayta olaman, deb bahona qilibdi, u qo'shiq aytishni istamaganidan shunchaki o'zini katta olib, xuddi ibodat qilayotgan-dek stol ustida g'o'dayib turaveribdi.

Deraza tokchasida xizmatkor qiz xat yozadigan eski bir g'oz pati yotgan ekan; uning siyohdonga chuqur-chuqur botirib olishlaridan bo'lak arzigulik xotirasi bo'lmasa-da, xuddi ana shu ishi bilan ham faxrlanar ekan!

– Na iloj, samovar qo'shiq aytishni istamasa, aytmay qo'ya qolsin! – debdi u. – Deraza ortidagi katakda bir bulbul bor, o'sha kuylay qolsin! Masa-lan, u o'qiganlar toifasidan emas, lekin ushbu kecha bu haqda indamay qo'ya qolaylik.

– Menimcha, allaqanday bir kelgindi qushni eshitish o'taketgan beodoblik bo'ladi! – debdi oshxona qo'shiqchisi, samovarning o'gay ukasi bo'lmish kat-takon mis choynak. – Shu ham axir vatanparvarlik bo'ldimi? Qani, masalliq tashiydigan savat o'z fikri-ni aytsin-chi!

– Men sirayam chiday olmayapman! – debdi sa-vat. – Ichimdagini aystsam, ishonmaysiz! Kechani ham shunaqa o'tkazadimi? Nahotki xonadonimiz-ga rahnamolik qiladigan bir kishi topa olmasak? Shunday qilsak har bir kishi o'z o'rnini bilgan, men esa hammaga rahbarlik qilgan bo'lur edim. Ana shundagina ishimiz yurishib ketardi.

– Kelinglar, bir shovqin-suron qilaylik! – deya qichqiribdi hammalari.

Shu payt qo'qqisdan eshik ochilib, xizmatkor qiz kirib kelgan ekan, hamma tosh qotib, dami ichiga tushib ketibdi; lekin bu yerda aslzoda bo'lishni, hamma ishni qoyillatib qo'yishni orzu qilmaydigan bironta ham idish yo'q ekan. "Agar barchasiga men boshchilik qilganimda, zo'r vaqtichog'lik bo'lur edi", deb o'ylar ekan ularning har biri.

Xizmatkor qiz gugurt chaqib, shamlarni yoqibdi. Yo tavba, ular chirsillagancha naqadar ajoyib yonar ekan!

"Mana endi bu yerda bizning eng mo'tabar zotlar ekanimizni hamma ko'rib qo'yadigan bo'ldi, – deb o'ylashibdi ular. – Qanchalik ravshan, mo'l-ko'l shu'lalar sochmoqdamiz!"

Shu tariqa ular yonib tamom bo'lishibdi.

– Ajoyib ertak ekan! – debdi qirolicha. – Xuddi mening o'zim oshxonada gugurtlar bilan birga o'tirgandek bo'ldim! Sen bizning qizimizga uylanishga loyiq yigit ekansan.

– Albatta-da! – debdi qirol. – To'y dushmanba kuni bo'ladi. – Endilikda ular bolani sensiray boshlashibdi. Chunki u qirol oilasining a'zosi bo'lishi kerak ekan-da.

Xullas, to'y kunini e'lon qilishibdi, kechqurun shaharning hamma chiroqlarini yoqishibdi, xalq boshidan zog'ora va teshikkulchalar sochishibdi. Ko'cha bolalari ularni tutib olish uchun sakrashibdi, "ura" deb qichqirishibdi, barmoqlarini og'izlariga tifib hushtaklar chalishibdi, xullas, ajoyib bir tanta-na bo'libdi.

"Men ham biror narsa o'ylab topishim kerak!"

– deb xayol qilibdi savdogarning o'g'li, u raketa, mushak va shunga o'xhash narsalar sotib olib,

ularning hammasini sandiqqa solgancha havoga ko‘tarilibdi.

Paq, puq! Vash-vishsh! Butun atrofni ana shunday sadolar tutib ketibdi!

Turklar shu qadar sakrashibdiki, tuflilari oyoqlari dan uchib chiqib, boshlaridan oshib ketibdi, ular haliga qadar bunaqangi mushakbozlikni ko‘rishmagan ekan da. Ana shundagina ular malikaga naq turk tangrisining o‘zi uylanayotganini anglab yetishibdi.

O‘z sandig‘iga minib o‘rmonga qaytgan savdogarning o‘g‘li: “Men haqimda nimalar deb gapirayotgan larini bilishim uchun shaharga borishim kerak”, – deb o‘ylabdi. Unga esa buni bilish qiyin emas ekan.

Shaharda esa rosa shov-shuv bo‘lib yotgan ekan! U kimga qaramasin, barcha ko‘rgan-bilganlarini o‘zicha to‘qib-bichar, lekin hamma bir ovozdan ilgarilari bunday zo‘r tomosha sirayam bo‘limganini ma’qullar ekan.

– Men naq turk tangrisining o‘zini ko‘rdim, – debdi odamlardan biri, – ko‘zлari naq yulduzga o‘xshaydi, soqolini xuddi dengiz ko‘pigi deysiz!

– U olovli chakmonda uchib yurardi, – debdi boshqa birov, – choclaridan yoqimtoy farishtachalar mo‘ralab turardi.

Ha, unga ko‘pdan-ko‘p ana shunaqangi qiziqarli voqealarni aytib berishibdi, ertasi kuni esa to‘y bo‘lishi kerak ekan.

U tag‘in o‘z sandig‘iga kirib o‘tirish uchun o‘rmonga qaytibdi, biroq sandiq yo‘q emish! U yonib ketibdi! Savdogarning o‘g‘li mushak otayotganda sandiqning ichiga uchqun tushib qolgan

ekan, sandiq tutab-tutab, oxiri lov etib yonib ketibdi, undan faqat bir hovuch kul qolibdi, xolos. Shunday qilib, savdogarning o‘g‘li o‘z qallig‘ining huzuriga qayta uchib bora olmabdi.

Malika esa tomda kun bo‘yi uni kutib o‘tiribdi, to hozirgacha uni kutayotgan emish. Savdogarning o‘g‘li esa ertaklar so‘zlagancha jahonni kezib yur-gan emish, ammo uning bu ertaklari gugurtlar haqi-da to‘qigan birinchi ertagi kabi qiziqarli emas ekan.



YO'LDOSH O'RTOQ

Bechora Iogannesning boshiga og‘ir musibat tushibdi: uning otasi kasal bo‘lib, o‘lim to‘shagida yotgan ekan. Ular o‘z kulbalarida yolg‘iz yashar ekanlar; tunning allamahali bo‘lib, stol ustidagi chiroq o‘chib qolibdi.

– Sen mening mehribon farzandim eding, Iogannes! – debdi bemor ota. – Xudo sendan o‘z marhamatini ayamaydi!

Ota o‘g‘liga jiddiy va mehribon ko‘zлari bilan tikilibdi-da, chuqur bir xo‘rsingancha xuddi uxbab qolgandek olamdan o‘tibdi. Iogannes rosa yig‘labdi. Uning na onasi, na singillari, na og‘a-inilari bor, dunyoda yakka-yu yolg‘iz qolgan ekan-da! Sho‘rlik Iogannes! U marhumning karavoti oldida uzoq vaqt tiz cho‘kib o‘tiribdi va achchiq-achchiq ko‘z yoshlarini to‘kkancha otasining qo‘llaridan o‘pibdi, so‘ng ko‘zлari o‘z-o‘zidan yumilib, qattiq to‘sakka bosh qo‘ygancha uxbab qolibdi.

U ajoyib bir tush ko‘ribdi.

Tushida quyosh va oy unga ta’zim qilib turar, otasi avvalgidek sog‘ va bardam emish; hatto u jilmayib ham qo‘yibdi, u juda xursand bo‘lganida ana shunday jilmayar ekan; boshiga tilla toj qo‘ndirib olgan, sochlari uzun, go‘zal bir qiz Iogannesga qo‘llarini cho‘zibdi, otasi esa: “Qaragin, naqadar ajoyib qaylig‘ing bor! U dunyodagi eng yaxshi qiz!” debdi.

Shu payt Logannes uyg' onib ketib, ajoyib tushi g'oyib bo'libdi. Otasi o'lgan, jasadi sovub yotar, yigitning esa endilikda hech kimi yo'q ekan. Sho'rlik Logannes!

Oradan bir hafta o'tgach marhumni dafn etishibdi; Logannes tobut ortidan boribdi. Endilikda u o'zining mehribon otajonini hech qachon ko'rolmaydi! Logannes tobut ustiga tuproqning taraqlab tushishini eshitib, uning tobora yer ostiga ko'milib borayotganini ko'rib turibdi; mana, tobutning ko'zga tashlanib turgan so'nggi qirrasiga bir hovuch tuproq tushishi bilan u batamom yer ostida qolib ketibdi. Logannesning bu musibatdan yuragi to'xtab qolgudek bo'libdi. Qabr ustida duolar o'qilibdi; duoning taskinbaxsh ohangi uni yig'lagudek o'rtab yuboribdi, u chindan ham yig'lagan ekan, yuragi ancha yengil tortibdi. Quyosh yam-yashil daraxtlar tepasidan iliq shu'lalar sochar, go'yo u: "Qayg'urma, Logannes! Moviy osmonning go'zalligiga bir boq, u yerda otang sening haqingga duo qilib turadi!" deyayotgandek ekan.

– Men hamisha mehribon bo'lib qolaman! – debdi Logannes. – Shunda men ham osmonga, otamning huzriga uchib ketaman! Biz qayta ko'rishsak, zo'r shodiyona bo'ladi! Unga shunchalik ko'p narsalar ni aytib beramanki! U menga osmon go'zalliklarini ko'rsatadi, xuddi yerda bo'lgani kabi tag'in saboqlar beradi. Rosa xursandchilik bo'ladi!

U bularning hammasini xuddi jonlidek tasavvur qilibdiki, hatto ko'z yosh aralash jilmayib ham qo'yibdi. Kashtanlarning shoxida turgan qushcha-

lar bor ovozda chirqillashar, qo'shiqlar kuylashar, garchi azada ishtirok etayotgan bo'lsalar-da, juda xursand ekanlar, chunki ular marhum endilikda osmonda ekanini, undan o'zlarinikidan ham chiroyli va uzun qanotlar o'sib chiqishini, yerda ezgu hayot kechirgani uchun ham baxtiyor bo'lishini bilishar ekan-da. Logannes qushchalarining yam-yashil daraxtlardan pirillab ko'tarilib, uzoq-uzoqlarga uchib ketganlarini ko'rib, o'zi ham ularning ortidan dunyo kezib chiqishni istab qolibdi. Biroq avval u otasining qabri uchun yog'och xoch yasabdi, kechqurun bu xochni o'rnatish uchun qabr boshiga kelsa, qabrga tekis qilib qumlar sepilganini, gullar qo'yilganini ko'ribdi, bularning hammasini yigitning oliyjanob otasini judayam sevadigan begona kishilar qilishgan ekan.

Ertasi kuni tong saharlab Logannes o'zining bor boyligini kichkina bir tugunchaga tugibdi-da, otasidan qolgan meros – 50 taler pul va ikkita mayda kumush tangasini beliga bog'lab, yo'lga chog'lanibdi. Lekin avval otasining qabriga borib duo o'qibdi va:

– Alvido, mehribon otajonim! Sen osmonlarda meni duo qilib turishing uchun men hamisha mehribon bo'lishga harakat qilaman! – debdi.

Logannes o'tib borayotgan dalada turli-tuman toza, chiroyli gullar o'sib yotar, ular quyoshdan taft olgancha, shamolda boshlarini tebratib: "Xush kelibsan! Bizning maskanimiz judayam ajoyib joy, to'g'rimi?" deb so'rashayotgandek ekan. Logannes o'zi chaqaloqligida cho'qintirilgan, yakshanba kunkari keksa otasi bilan duolar o'qish uchun borgan

eski cherkovni yana bir bora ko‘rish uchun ortga o‘girilib qarabdi. Qo‘ng‘iroqxonaning eng tepe-sida, dumaloq derazalardan birida u qizil cho‘qqi qalpoq kiyib olgan, kaftini quyoshga soyabon qilib turgan cherkov ajinasini ko‘rib qolibdi. Iogannes unga xayr degandek bosh silkigan ekan, mittigina ajina ham unga javoban qizil qalpoqchasini silkib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha yigitga bir necha havoyi bo‘salar yo‘llabdi, bu bilan u Iogannes o‘z yuragidan naqadar chuqur joy olganini va unga qizg‘in oq yo‘l tilayotganini ifoda etayotgan ekan.

Iogannes bu keng va go‘zal dunyoda o‘zini qana-qangi ajoyibotlar kutib turganini xayol qilgan holda notanish tomonlarga ilgarilab boraveribdi. Qarshisi-dan begona shaharlar, notanish qiyofalar chiqibdi, shu tariqa u o‘z ona vatanidan olis joylarga borib qolibdi.

Birinchi kechani u dalada, pichan g‘aramida tunab o‘tkazibdi, chunki ko‘rpa-to‘sak so‘raydigan joyi yo‘q ekan. “Hechqisi yo‘q, – deb o‘ylabdi u, – hatto qiroq ham uxlagini bunaqangi yaxshi joyni to-polmaydi!” Dala, daryo, pichan g‘aramlari va moviy osmon uning uchun g‘aroyib boshpana bo‘libdi. Qizil va oq gulchalar o‘sib yotgan yam-yashil o‘tloq uning gilami, marjungul va na’matak butalari – gul-chambari, bosh eggancha xayrli tong va xayrli tun tilagan kabi qamishlar o‘sib yotgan tiniq, toza daryo uning cho‘miladigan joyi bo‘libdi. Yuksak moviy gumbaz ostida ulkan tun chirog‘i – oy por-lab turar, bu chiroqqa chiroqpo‘shning ham keragi yo‘q ekan! Iogannes butunlay xotirjam ux-

lashi mumkin ekan. U shundoq ham qilibdi, faqat quyosh yoyilib ketgandagina uyg‘onibdi, qushlar:

– Salom! Salom! Haliyam turmadingmi? – deya kuylashmoqda ekan.

Yakshanba kuni bo‘lib, tushki qo‘ng‘iroq yangrabdi; odamlar ruhoniyning va’zini tinglash uchun cherkovga yo‘l olishibdi, Logannes ham ularga ergashibdi, u ham duolar o‘qib, ilohiy o‘gitlarni eshitibdi, o‘zi cho‘qintirilgan va otasi bilan duolar o‘qigan qadrdon cherkoviga kirib qolgandek bo‘libdi.

Bu cherkov qabristonida baland o‘t-o‘lanlar bosib yotgan ko‘plab qabrular bor ekan. Logannes endilikda qarovsiz qolgan, bir kun kelib shu holga tushadigan otasining qabri haqida o‘ylab ketibdi. U yerga o‘tirgancha qabrlarni o‘tlardan tozalar, qiyshayib qolgan xochlarni to‘g‘rilar, shamol uchirib ketgan gulchambarlarni o‘z o‘rniga qo‘yar ekan: “Ehtimol, kimdir men qilolmagan ishni qilib, otamning qabrini ham ana shunday tartibga solib qo‘yar”, deb o‘ylabdi.

Qabriston darvozasi oldida hassaga tayangancha keksa bir tilanchi turgan ekan; Logannes unga o‘zining kumush tangalarini berib, baxtiyor va mamnun holda dunyo kezishda davom etibdi.

Kechqurunga borib momaqaldiroq gumburlab qolibdi; Logannes birorta boshpana topish uchun rosa shoshibdi, lekin ko‘p o‘tmay atrof qop-qorong‘i bo‘lib qolibdi; nihoyat u yo‘l ustida qaqqayib turgan kichkina bir ibodatxonaga yetib boribdi, baxtiga uning eshigi ochiq ekan, havo ochilib ketishini kutish uchun ichkari kiribdi.

– Shu yerda, bir burchakda o‘tira qolaman, – debdi logannes, – o‘lguday charchadim, birpas dam olvolay.

U o‘tirib, qo‘l qovushtirgancha kechki ibodatini qilibdi, tashqarida chaqmoq chaqnab, momaqaldiroq gumburlab yotganda u qanday qilib mudroq bosgani va uqlab qolganini o‘zi ham sezmabdi.

Logannes jimjit yarim kechada uyg‘onib ketibdi; jala tingan, derazadan oy nuri tushib turar ekan. Ibodatxona o‘rtasida ichiga jasad solingan, hali dafn etishga ulgurishmagan bir ochiq tobut qo‘yilgan ekan. Logannes sirayam qo‘rwmabdi, chunki uning vijdoni pok bo‘lib, u marhumlarning, tirik yovuz kishilardan farqli o‘laroq, hech kimga yomonlik qilmasliklarini yaxshi bilar ekan. Xuddi ana shunday yovuz kishilardan ikkitasi dafn etish uchun ibodatxonaga qo‘yilgan marhum yonida turgan emish. Ular sho‘rlik marhumni tahqirlash – uning jasadini tabutdan olib tashqariga chiqarib tashlash niyatida ekanlar.

– Nega bunday qilmoqchisiz? – deb so‘rabdi logannes. – Bu judayam qabih va gunoh ish-ku, axir. Yaxshisi, uni tinch qo‘yinglar!

– Bekor gap! – deyishibdi yovuz kishilar. – U bizni aldadi. Pulimizni olib, qaytarmasdan o‘lib ketdi. Endilikda undan sariq chaqa ham undira olmaymiz; shuning uchun ham undan o‘ch olmoqchimiz, jasadi ko‘chada itning o‘ligi kabi xor bo‘lsin!

– Menda atigi 50 taler bor, – debdi logannes, – menga qolgan bor meros shu, agar bu marhumni tinch qo‘yishga so‘z bersangiz, sizga shu

boyligimni jon-jon deb berishim mumkin. Mening pulsiz ham kunim o'tadi, ikkita baquvvat qo'lim bor, xudo ham meni yolg'iz qo'yaydi.

– Yaxshi, – deyishibdi yovuz kishilar, – agarda sen uning qarzini to'lasang, ko'ngling tinch bo'lsin, unga hech qanday yomonlik qilmaymiz!

Shu tariqa ular logannesning pulini olib, uning saxiyligidan kulishibdi va o'z yo'llarida davom etishibdi. Logannes esa marhumni tobutga yaxshilab yotqizib, qo'llarini ko'ksiga qovushtiribdi-da, u bilan vidolashib, ko'ngli taskin topgach, qalin o'rmonga kirib boribdi.

Oy shu'lsi tushib turgan daraxtlar orasida mitti-mitti, chiroyli elflar⁴ o'ynoqlab yurishgan ekan; ular logannesdan sirayam cho'chimabdilar, chunki ular logannesning olivjanob, begunoh inson ekanini yaxshi bilar ekanlar-da, zero, faqat yomon odamlargina elflarni ko'ra olmas ekanlar. Ayrim elflar jimjiloqdek kichkina bo'lib, ularning uzun malla sochlariiga tilla taroqchalar qadab qo'yilgan, boshqalari juft-juft bo'lib yaproq va may-salar ustiga qo'ngan kattakon shabnam tomchilarini dumalatib yurishar ekan; ba'zan bu tomchilar va ularga qo'shilib elflar ham to'ppa-to'g'ri qalin o'tlar orasiga dumalab ketar, shunda boshqa mittichalar o'rtasida kulgi va shovqin-suron ko'tarilar ekan. Naqadar maroqli tomosha! Ular qo'shiq aytishgan ekan, logannesning bolaligida aytgan eng yaxshi qo'shiqlari yodiga tushibdi. Boshiga

¹ Elf – qadimgi Skandinaviya mifologiyasida ruh, pari kabi afsonaviy maxluq.

kumush toj qo'ndirib olgan kattakon olachipor o'rgimchaklar butadan butaga osma ko'prik tortishar, butun boshli saroylar to'qishar, mabodo ularga bir tomchi shabnam tomib qolsa, u oy yog'dusida xuddi shaffof billurdek yaltiarar ekan. Bu hol to quyosh chiqquncha davom etibdi. Quyosh ko'ringach, mitti elflar gullarning kosasiga chiqib olishibdi, shamol esa ularning ko'prik va saroylarini yulqib olibdi-da, xuddi oddiygina o'rgimchak ini kabi havoga uchirib ketibdi.

Logannes o'rmondan chiqqan ham ekanki, ortdan jarangdor erkakcha ovoz yangrabdi:

– Yo'l bo'lsin, hoy o'rtoq?

– Boshim oqqan tomonga ketyapman! – debdi Logannes. – Mening otam ham, onam ham yo'q, chin yetimman, biroq xudo meni yolg'iz qo'ymaydi!

– Men ham bu dunyoda boshim oqqan tomonga ketyapman, – debdi notanish kishi, – kel, o'rtoq bo'la qolaylik!

– Bo'pti! – debdi Logannes va ular birgalikda yo'lda davom etishibdi.

Ko'p o'tmay bir-birlarini juda yoqtirib qolishibdi, chunki ikkovlari ham xushmuomala kishilar ekanlar-da. Biroq Logannes bu notanish kishining o'zidan ko'ra aqlliroy ekanini anglabdi, u butun dunyoni kezib chiqqan, hamma narsa haqida hikoya qilib bera olar ekan.

Ular kattakon daraxt soyasida ovqatlangani o'tirishganda quyosh ancha tikkaga kelib qolgan ekan. Xuddi shu payt ularning yoniga qari-churi, munkillagan, dastasi ilgakli hassa tutgan bir

kampir kelib qolibdi; u yelkasiga bir bog' o'tin ko'tarib olgan, baland qilib bog'langan peshbandida esa uch bog'lam qirqquloq va tolning xipchinlari do'ppayib turar ekan. U logannes va uning o'rtog'iga yondoshib kelganida qo'qqisdan qoqilib ketib, yiqilib tushibdi va dodlab yuboribdi; sho'rlikning oyog'i sinib qolgan ekan.

Logannes o'rtog'iga, darhol bu kampirni uyiga eltish kerak debdi, biroq notanish kishi xaltasini ochib, bitta banka chiqaribdi-da, kampirga, mening shunaqangi malhamim borki, u seni darhol tuzatib qo'yadi, xuddi hech narsa bo'limgandek uyingga ketaverasan, debdi. Biroq buning uchun kampir unga peshbandidagi uch bog'lam xipchinni sovg'a qilishi kerak ekan.

– Yaxshigina to'lov! – deya kampir boshini g'alati tebratib qo'yibdi. U o'z xipchinlaridan ajralishni istamas, biroq singan oyoq bilan yotaverish ham yoqimsiz ekan, shuning uchun u xipchinlarini haligi kishiga beribdi, haligi kishi esa uning oyog'iga malham surgan ekan, ko'z ochib yumguncha fursat o'tmay kampir o'midan sakrab turibdi va avvalgidan ham yaxshiroq yo'rg'alab ketibdi. Ana shunday shifobaxsh ekan bu malham. Lekin bunaqasini dorixonalardan topib bo'psan!

– Senga bu xipchinlarning nima keragi bor? – deb so'rabdi logannes o'rtog'idan.

– Og'irlik qilmaydi, – debdi u. – Bular menga juda yoqib qoldi; men ana shunaqangi g'alati odamman!

Ular yana ancha yo'l bosishibdi.

– Qara, qanday burkanib kelmoqda! – debdi logannes barmog‘i bilan oldindagi bulutga ishora qilib. – Naqadar qo‘rquinchli bulutlar!

– Yo‘q, – debdi o‘rtog‘i, – u bulut emas, tog‘lar, g‘aroyib, osmono‘par tog‘lar, ularga chiqsang, bultlardan ham balandga, haqiqiy kenglikka ko‘tarilasan. Oh, u joy naqadar ajoyib! Ertaga biz o‘scha yerda bo‘lamiz.

Biroq bu tog‘lar yaqin ko‘rinsa-da, anchagina olis ekan. Logannes bilan o‘rtog‘i osmonga futashib ketgan qop-qorong‘i o‘rmonga va har biri shahardek keladigan bahaybat toshlarga yetguncha kun bo‘yi yo‘l bosishibdi; ha, toqqa chiqish hazilakam ish emas ekan, shuning uchun ham logannes bilan o‘rtog‘i tunash va ertalabga kuch yig‘ish uchun bir karvonsaroyga kirishibdi.

Pastdagi kattakon pivoxonada ko‘plab kishilar yig‘ilgan bo‘lib, qo‘g‘irchoq tomoshasi qo‘yilayotgan, qo‘g‘irchoqlarning xo‘jayini xonaning o‘rtasida kichkina tomosha ko‘rsatayotgan ekan, odamlar maza qilib ko‘rish uchun uning atrofini yarim doira qilib qurshab olgan, hammadan oldinda, eng yaxshi joyda bahaybat bulldogi bilan keksa, xo‘ppasemiz qassob o‘tirib olgan ekan. Voy-bo‘, bu bulldog naqadar jahldor! U ham xo‘jayinining yoniga o‘tirib olib, ko‘zlarini chaqchaytirgancha tomosha qilmoqda ekan.

Tomosha juda zo‘r o‘tibdi: baxmal taxtda qirob bilan qirolicha o‘tirar, ularning boshlarida tilla toj, egnilarida etagi uzun libos bo‘lib, boy bo‘lganliklari uchun ham ana shunday hashamdar kiyinishgan

ekan. Barcha kirish joylarida ko‘zлari shishadan qilingan, mo‘ylovleri uzun, judayam g‘aroyib yog‘och qo‘g‘irchoqlar turar, ular xonani shamollatish uchun eshiklarni lang ochib qo‘yishgan ekan. Xullas, ajoyib, qayg‘u-g‘amdan xoli bir tomosha bo‘libdi; ana, qirolicha o‘rnidan turib bir necha qadam tashlagan ham ekanki, xudo bilsin, bulldogga nimadir bo‘lib, xo‘jayini tutib qololmay, to‘ppa-to‘g‘ri sahnaga sakrab chiqibdi-da, qirolichaning belidan xap etib tishlab olibdi. Naqadar dahshat!

Sho‘rlik qo‘g‘irchoqboz bechora qirolicha uchun qayg‘urib, qattiq qo‘rqib ketibdi; bu qirolicha qo‘g‘irchoqlarning ichida eng go‘zali bo‘lib, qo‘qqisdan irkit bulldog uning boshini uzib olgan ekan-da! Bi-roq odamlar tarqagach, logannesning o‘rtog‘i qirolichani tuzataman debdi va bankachadan huv o‘sha kampirning singan oyog‘iga surgan malhamini olib, qo‘g‘irchoqqa ham surgan ekan, u yana darhol asl holiga qaytib, buning ustiga hamma a’zolarini qimirlatgancha o‘zi yuradigan bo‘lib qolibdi, endilikda iplarni tortib turishning ham hojati qolmabdi; demak, unga jon kirgan bo‘lib, faqatgina gapira olmas ekan. Xo‘jayin bundan juda mammun bo‘libdi: chunki endilikda qirolichani boshqarishning hojati yo‘q, boshqa qo‘g‘irchoqlardan farqli o‘laroq, uning o‘zi raqsga tusha olar ekan!

Tunda, barcha uxlagini yotganda qo‘qqis-dan kimdir shu qadar chuqur, shu qadar uzun xo‘rsinibdiki, hammma bu nima ekanini, unga nima qilganini ko‘rish uchun uyg‘onib ketibdi, qo‘g‘irchoqlar xo‘jayini esa o‘zining kichkina te-

atridan xabar olgani boribdi, chunki xo'rsinishlar o'sha tomondan kelmoqda ekan. Barcha yog' och qo'g'irchoqlar, qiroq ham, uning tanqorovullari ham aralash-quralash bo'lib yotar, chuqur-chuqur hansirar va shisha ko'zlar ola-kula bo'lib ketgan: ular ham o'zlariga qirolichcha kabi malham surtishlarini istar, chunki ana o'shanda ularning ham o'zlar harakatlana olishar ekan. Tiz cho'kib olgan qirolichcha: "Mana buni oling, faqat evaziga mening erimga va a'yonlarimga malham suring!" deyayotgandek o'zining tilla tojini oldinga cho'zib turar ekan. Sho'rlik xo'jayin ko'z yoshlarini tiya olmabdi, qo'g'irchoqlariga shunchalik rahmi kelibdiki, Logannesning o'rtog'i yoniga borib, agar to'rt-beshta eng yaxshi qo'g'irchoqlarimga malham sursangiz, kechagi tomoshadan tushgan hamma pulimni beraman deb va'da qilibdi. Logannesning o'rtog'i xo'jayinga, pulingni olmayman, biroq evaziga yoningda osib yurgan kattakon qilichingni berasan, degan talabni qo'yibdi; qilichni olgach, u oltita qo'g'irchoqqa malham surgan ekan, ular shu zahotiyoy ajoyib bir tarzda raqsga tushib ketishibdi, ularga boqib barcha tirik kishilar: haqiqiy qizlar, izvoshchi oshpaz ayol bilan, xizmatkor oqsoch bilan, hamma mehmonlar, hatto kosov otashkurak bilan ilk sakrashdayoq o'zlarining naynov bo'ylarini ko'z-ko'z etib o'yingga tushib ketishibdi. Ha, juda quvnoq bir kecha bo'libdi!

Ertasi kuni ertalab Logannes va uning o'rtog'i hamma bilan xayrlashib, osmono'par toqqa chiqib,

bepoyon qarag‘ayzorga kirib borishibdi. Ular shu qadar baland ko‘tarilishibdiki, pastdag‘i qo‘ng‘iroq-xonalar yashil o‘tloq ustidagi qip-qizil mevachalar-ga o‘xshab qolibdi, ular hali o‘zлari hech qachon bo‘lмаган joylarni, uzoq-uzoqlarni tomosha qilish-lari mumkin ekan. Logannes yaratganning bu qadar go‘zal dunyosini hali hech qachon bunaqangi birvarakayiga ko‘rmagan ekan. Iliq quyosh moviy, tip-tiniq osmonda shu’la sochib turar, tog‘larda ov-chi burg‘ularining ovozi yangramoqda ekan. Ham-masi shu qadar ajoyib ekaniki, xursand bo‘lib ket-ganidan Logannesning ko‘zlariga yosh qalqibdi va bunday deb xitob qilishdan o‘zini tiya olmabdi:

– Yo tangrim! Sen shunchalik saxovatli bo‘lgan-ning, biz uchun shunday ajoyib dunyo yaratib qo‘y-ganining uchun yuzlaringdan cho‘lp-cho‘lp o‘pib ol-gim kelayotir!

Logannesning o‘rtog‘i ham ko‘ksiga qo‘l qo-vushtirib turar, quyosh nur sochib yotgan o‘rmon va shaharlarga tikilar ekan. Shu payt ularning tepa-sida ajoyib bir ohang yangrabdi, havoda kattakон chiroyli bir oqqush qo‘sinq kuylagancha uchib borar, hech bir qush bunaqangi qo‘sinq kuylay olmas ekan; biroq uning tovushi asta-sekin pasayib borib-di va u boshini osiltirgancha ohista yerga qo‘nibdi; Logannes va o‘rtog‘ining oyoqlari ostida bu go‘zal qushning o‘ligi cho‘zilib qolibdi!

– Naqadar ajoyib qanotlar! – debdi Logannesning o‘rtog‘i. – Oppoq, uzun-uzun; bu qimmat tura-di. Ko‘rdingmi, mening qilich olvolganim yaxshi bo‘lgan ekan.

Va u bir qilich solishdayoq o'lik oqqushning ikkala qanotini ham qirqib olibdi.

So'ng ular yana uzoqdan-uzoq yo'l bosishibdi, nihoyat, oldinda quyoshda kumushdek yaltirab turgan yuzlab minoralari bo'lgan kattakon shahar namoyon bo'libdi; shaharning qoq o'rtasida tomi sof oltindan qoplangan ajoyib marmar saroy bo'lib, unda qiroq istiqomat qilar ekan.

Logannes va o'rtog'i darhol shaharga kirishi xohlamay, ko'chaga chiqishdan oldin birpas yo'lning chang-to'zonlaridan tozalanish va kiyimlarini tartibga keltirish uchun bir karvonsaroya to'xtabdilar. Karvonsaroy xo'jayini ularga qiroq oliyjanob kishi bo'lib, odamlarga hech qachon zarar yetkazmaganini, biroq uning qizi juda yovuz ekanini aytib beribdi. Albatta u dunyodagi tanho go'zal, lekin shu yovuz alvasti qiz tufayli qachadan-qancha shahzodalar o'lib ketgan bo'lsa, bu go'zallikdan nima foyda, debdi u. Gap shunda ekanki, barchaga – shahzodaga ham, gadoga ham bu qizga uylanish uchun ruxsat berilgan, faqat buning uchun kuyov ushbu malika o'ylab topgan uchta topishmoqqa javob berishi kerak ekan; agar kim topsa, qiz unga turmushga chiqar va qizning otasi o'lgach, ushbu mamlakatning qiroli bo'lib qolar, agar topa olmasa, yo dorga osilar, yoki boshi tanasidan judo etilar ekan. Ko'rdingizmi go'zal malikaning naqadar razilligini! Qirol, ya'ni qizning keksayib qolgan otasi bundan juda qayg'u chekar, biroq qiziga hech bir chora topolmas ekan;

oxiri u, endi kuyovlar bilan hech qanday ishim yo‘q, qizim ular bilan bilganini qilsin, debdi. Kuyov ketidan kuyov yopirilib kelar, ularga topishmoq aytishar, biroq omadlari kelmay, malikaga unash-tirish o‘rniga barchasini qatl etishar, chunki ularni avvaldan ogohlantirib qo‘yishgan ekan-da!

Bundan keksa qirol shu qadar ranjir ekanki, yilda bir marta barcha askarlari bilan uzzukun tiz cho‘kkanicha, qizimga insof ato et, deya xudoga iltijo etar, biroq qiz bunga parvo ham qilmas ekan. Ichishni yaxshi ko‘radigan kampirlar sharoblarini qora rangga bo‘yashar ekan, axir ular o‘z qayg‘ularini qanday qilib boshqacha ifodalashlari mumkin?

– Razil qiz! – deb xitob qilibdi logannes. – Uni bop-lab savalash kerak. Men uning qirol otasi o‘rnida bo‘lganimda rosa adabini berib qo‘ygan bo‘lardim!

Xuddi shu payt tashqaridan odamlarning “ura!” deb qichqirgan sadolari eshitilibdi. Ko‘chadan malika o‘tib ketayotgan bo‘lib, u haqiqatan ham shu qadar chiroyli ekanki, odamlar uning yovuzligini ham unutib, “ura!” deya qichqirishmoqda ekan.

Malikani o‘n ikkita qarg‘a minib olgan go‘zal amazonkalar⁵ qurshab borar, ular oppoq ipak libos kiyib, qo‘llarida tilla lolalar tutib olgan ekanlar. Malikaning o‘zi egar-jabduqlariga olmos va la‘l-javohirlar qadalgan qordek oppoq otda borar, ko‘ylagi sof oltindan bo‘lib, qo‘lidagi qamchisi chaqmoqdek yaraqlar, boshidagi toji xuddi haqiqiy yulduzchalar qadalgandek yonib turar, yelkasiga esa yuz minglab chiroyli kapalaklarning qanotidan tikilgan kamzul

⁵ Amazonka – yunon afsonalarida jangovar ayol.

tashlab olgan, biroq baribir uning o'zi liboslaridan ming bora yaxshi ekan.

Uni ko'rgan logannesning tili gapga kelmay, qizg'aldoqdek qizarib ketibdi: bu qiz otasi o'lgan kecha logannesning tushiga kirgan huv o'sha qizga ikki tomchi suvdek o'xshab ketar ekan-da. Ha, malika shu qadar yaxshi ekanki, logannes uni sevmasligi mumkin emas ekan. "U chindan ham o'zi aytgan topishmoqlarni topa olmaganylari uchun kishilarni qatl ettiradigan darajada yovuz alvasti bo'lishi mumkin emas, – deb o'yabdi logannes. – Unga uylanish uchun barchaga, hatto juldurvaqi gadolarga ham ruxsat berilgan ekan; men ham saroyga boraman! Boshqa ilojim yo'q!"

Barcha uni bu niyatidan qaytarmoqchi bo'libdi, chunki uning boshiga ham boshqalarning kuni tushishi mumkin ekan-da. Yo'ldosh o'rtog'i ham logannesga o'z baxtini sinab ko'rishdan qaytishni maslahat beribdi, biroq Logannes hammasi yaxshi bo'ladi degan qarorga kelibdi, etigi va chakmonini tozalab, yuvinibdi, malla, chiroyli sochlarni tarab, yakka-yu yolg'iz shaharga, keyin esa saroyga yo'l olibdi. Darvozani taqillatgan ekan:

– Kiring! – debdi keksa qiro.

Logannes darvozani ochgan ekan, kamzul kiygan qirol uni qarshi olibdi; uning oyog'ida guldor tufli, boshida toj, bir qo'lida sultanat hassasi, ikkinchi qo'lida esa qirollik cho'qmori ekan.

– Shoshmay tur! – debdi u va Ilganness bilan salomlashishga qo'l cho'zish uchun qirollik cho'qmorni qo'ltig'iga qisib olibdi.

Biroq u o‘z oldida yangi kuyov turganini eshitishi bilanoq yig‘lab yuboribdi, qo‘lidan sultanat hassasi va qirollik cho‘qmori tushib ketib, ko‘z yoshlarini kamzulining etagiga artishga tushibdi. Bechora chol qiro!

– Yaxshisi, bu niyatingdan qayt! – debdi u. – Sening boshingga ham boshqalarning kuni tushadi! Yur, o‘zing bir ko‘rib qo‘y!

Shunday deya u Iogannesni malikaning bog‘iga boshlabdi. Voy... Naqadar dahshat! Har bir daraxtga bir paytlar malikaga xaridor bo‘lib kelgan, biroq uning topishmoqlarini topolmagan ikki-uchtalab shahzodaning jasadi osib qo‘ylgan emish. Salgina shamol esishi bilan suyaklar bir-biriga urilib qattiq shaqar-shuqur ovozlar chiqarar, hatto qushchalar ham qo‘rqqanidan bu bog‘ ustidan uchib o‘tolmas ekan. Odam suyaklari qo‘llarida gul tutib turar, gultuvaklarda esa tishlari sug‘urib olingan kalla suyaklari do‘ppayib turar ekan; gap yo‘q, malikaning o‘ziga munosib bir bog‘ ekan!

– Ko‘rdingmi! – debdi keksa qiro. – Sening boshingga ham ana shularning kuni tushadi! Yaxshisi, bu niyatingdan qayt! Sen uchun men judayam qattiq qayg‘uraman, hammasini yuragimga juda yaqin olaman!

Shu payt hovliga o‘z kanizaklari bilan malika kirib kelibdi, salomlashish uchun qiro bilan Iogannes unga peshvoz chiqishibdi. Malika chindan ham latofatli bo‘lib, u Iogannesga qo‘l cho‘zgan ekan, Iogannes uni avvalgidan ham qattiqroq yaxshi

ko'rib qolibdi. Yo'q, albatta, shunday malika odamlar aytgani kabi yovuz, irkit bir alvasti bo'lishi mumkin emas.

Ular saroy xonasiga yo'l olishibdi, xizmatkor bolalar ularga murabbo va asalli qatlamalar olib kelishibdi, biroq keksa qiroq xafa bo'lganidan hech narsa yemabdi, darvoqe, qatlama chaynashga uning tishlari ham yaramas ekan-da.

Shunday qarorga kelishibdiki, Logannes ertasi kuni ertalab yana saroyga keladigan, hakamlar va barcha kengash a'zolari yig'ilib uning topishmoqlarni qanday topishini eshitishadigan bo'libdi. Agar u birinchi topishmoqni topa olsa, yana ikki marta saroyga kelishi kerak bo'lib, biroq haligacha hech kim topishmoqni biron marta ham topa olmagan, birinchi urinishdayoq boshlaridan judo bo'lgan ekanlar.

Logannes o'z boshiga nima tushishini o'ylab ham o'tirmabdi; judayam shod-xurram holda nuqul latofatli malika haqida xayol qilibdi, xudo meni yolg'iz qoldirmaydi deb o'ylasa-da, biroq bu xudo o'ziga qanday madad berishini Logannesning o'zi ham bilmas va bu haqda o'ylashni ham istamas ekan; shu tariqa u qo'shiq aytganicha ortga qaytibdi va o'rtog'i kutib o'tirgan karvonsaroyga kirib kelibdi.

Logannes latofatli malika haqida, u o'zini naqadar iltifot bilan kutib olgani, ertasi kunni kutishga ham toqati yo'qligi, tong otishi bilanoq o'z baxtini sinab ko'rish uchun saroyga borishi to'g'risida to'xtovsiz so'zlab beribdi.

Biroq yo'ldosh o'rtog'i boshini afsus bilan sarak-sarak qilgancha debdi:

– Men seni judayam yaxshi ko'rardim, hali juda ko'p ajoyib kunlarni birgalikda o'tkazishimiz mumkin edi, endi esa qo'qqisdan sendan ayrilib qolishimga to'g'ri keladi! Bechora do'stim, yig'lagim kelyapti-yu, biroq seni xafa qilmoqchi emasman: ehtimol, bugun sen bilan birgalikda o'tkazayotgan oxirgi kunimizdir. To'yguncha xursandchilik qilaylik. Ertaga sen saroyga ketganingdan keyin ham yig'lashga ulguraman.

Yangi kuyov haqidagi gap darhol butun shaharga ovoza bo'libdi va hamma chuqur qayg'uga botibdi. Teatrlar bekilibdi, qandolatfurushlar to'ng'izcha shaklidagi shirinliklar ustiga qora matolar yopib qo'yishibdi, qirol bilan ruhoniylar esa cherkovga to'planib, tiz cho'kkancha xudoga iltijo qila boshlashibdi. Bu umumiy qayg'u ekan: axir boshqa kuyovlarning boshiga tushgan kun logannesning ham boshiga tushishi mumkin ekan-da.

Kechqurun logannesning o'rtog'i punsh⁶ tayyorlab, logannesga zo'r bir xursandchilik qilishni, malikaning sog'ligi uchun ichishni taklif etibdi. Logannes ikki stakan ichgan ekan, qattiq uyqu bosib kelibdi, ko'zлari o'z-o'zidan yumilib ketib, dong qotib uxlab qolibdi. O'rtog'i uni kursidan olib to'shakka yotqizibdi-da, tun kirishini kutib, o'lik oqqushdan qirqib olgan ikkita qanotni yelkalariga bog'lab, oyog'i singan kampirdan olgan xipchinlardan eng katta bog'lamenti cho'ntagiga solgancha derazadan chiqib, to'ppa-to'g'ri saroyga uchib boribdi. Ma-

⁶ Punsh – shakar, suv va meva shirasi qo'shib qaynatiladigan spirtli ichimlik.

lika uqlab yotgan xona derazasining bir chekkasiga qo'ngancha kuta boshlabdi.

Shahar sukunat og'ushida ekan, soat tungi o'n beshta kam o'n ikkiga zang urganida deraza lang ochilib, uzun oq libos kiygan, yelkalariga qop-qora qanotlar bog'lab olgan malika uchib chiqibdi. U to'ppa-to'g'ri toqqa qarab yo'l olibdi, logannesning o'rtog'i ham ko'rinas qiyofaga kiribdi-da, malikani xipchinlar bilan qonga bo'yab savalagancha uning ortidan uchib boribdi. Vizz...

Parvoz ana shunday zo'r o'tibdi! Malikaning kamzuli shamolda xuddi yelkan kabi qappayib borar, uning orasidan oy yog'du sochib turar ekan.

– Bu qanday chaqmoq! Bu qanday chaqmoq! – der ekan malika har xipchin tushganda; bu uning qilmishiga yarasha jazo ekan!

Nihoyat malika toqqa yetib borib taqillata boshlabdi. Momaqaldoq gulduragandek bo'lib tog' ikkiga bo'linibdi; malika ichkari kirgan ekan, logannesning o'rtog'i ham unga ergashibdi, chunki u ko'rinas qiyofaga kirib olgan, hech kim uni ko'rmas ekan-da. Ular devorlari g'alati yog'du sochib, minglab cho'g'dek qip-qizil, olovli o'rgimchaklar o'rmalab yurgan uzundan-uzoq dahlizdan o'tishibdi. So'ng malika va uning ko'rinas hamrohi kumush va til-ladan yasalgan ulkan bir xonaga kirishibdi; xona-ning devorlarida kattakon qizil va havorang gullar nur taratib turar, biroq bu gullarni hech kim uza olmas, chunki ularning tanalari jirkanch zaharli ilon-lardan iborat bo'lib, gullarning o'zi esa bu ilonlarning og'zidan otolib turgan olovdan ekan. Shiftga yaltiroq

qo'ng'izlar va havorang ko'rshapalaklar qo'nib olgan bo'lib, ular nafis qanotlarini tinmay pirillatishar, bu jundayam ajoyib bir tomosha ekan! Xonaning o'rtasida bir taxt bo'lib, uni oyoqlar o'mida to'rtta ot ko'tarib turar, bu otlarning egar-jabduqlari olovli o'rgimchaklardan iborat, taxtning o'zi xira oq shishadan yasalgan bo'lib, undagi yostiqlar bir-birining dumidan tishlab olgan qop-qora sichqonchalardan iborat ekan. Taxt ustiga qizil o'rgimchak tolasidan to'qilgan, dur kabi yaltirab turgan ajoyib pashshalar yopishtirilgan qimmatbaho guldor choyshab tashlangan ekan. Taxtda keksa troll o'tirar, uning xunuk boshiga toj qo'ndirilgan bo'lib, qo'lida sultanat hassasini tutib turar ekan. U malikaning peshonasidan o'pib, o'z yoniga, qimmatbaho taxtga o'tqazgan zahoti musiqa yangrab ketibdi. Kattakon qora chigirtkalar puflab chalinadigan garm'on chalar, boyqush esa baraban o'miga nuql o'z qormini do'pillatar ekan. Juda ajoyib konsert bo'libdi! Qalpoqlariga likillab turgan mash'alachalar qadab olgan mitti gnomchalar xona bo'ylab raqsga tushib ketishibdi. Iogannesning yo'ldosh o'rtog'ini hech kim payqamabdi, u esa taxt ortidan bularning hammasini ko'rib, eshitib turibdi!

Asta-sekin xonaga anchagina a'yonlar yig'ilishibdi, ular o'zlarini juda sipo va boodob tutar, agar kimning farosati bo'lsa, bu yerda hamma ishlar toza emasligini darhol anglab yetar ekan. Bu a'yonlarning boshi ro'vakli karamdan iborat bo'lib, troll ularga jon kirgizgan va zarrin liboslар kiydirib qo'ygan ekan. Biroq bunisi muhim emas, chunki bu a'yonlar faqat namoyish uchungina ekanlar-da!

O'yin tugagach, malika trollga yangi kuyov haqidagi gapirib berib, u ertalab saroyga kelganida qanday topishmoq aytish lozimligini so'rabdi.

– Quloq sol, – debdi troll, – uning xayoliga ham kelmaydigan eng oddiy bir narsani aytish kerak. Masalan, o'z boshmoqlaringni o'ylab ko'r. Ikki dunyoda ham topa olmaydi! Shunda uning boshini tanasidan judo qilishga amr etasan, darvoqe, ertangi kecha menga uning ko'zlarini olib keltirishni esdan chiqarma, men ularni yeymen!

Malika engashib, uning ko'zlarini olib kelishni unutmayman, debdi. So'ngra troll tog'ni ochgan ekan, malika uyiga qarab parvoz qilibdi, Logannesning yo'ldosh o'rtog'i ham ortdan osmonga ko'tarilib, uni xipchinlar bilan shu qadar savalab boribdiki, malika dod-voy solib, qattiq chaqmoqdan shikoyat qilgancha tezroq o'z xonasining derazasiga yetib olish uchun jon-jahdi bilan olg'a intilibdi. Logannesning yo'ldosh o'rtog'i qayta karvonsaroya uchib kelibdi; Logannes hali uxlab yotgan ekan; o'rtog'i ham qanotlarini yechib, to'shakka cho'zilibdi, bo'lmasam-chi, axir u qattiq charchagan ekan-da!

Logannes juda erta uyg'onibdi; uning yo'ldosh o'rtog'i ham uyg'onib, tunda ko'rgan g'aroyib tushini gapirib beribdi; u Logannesga tushida malika o'z boshmoqlari haqida topishmoq aytganini so'zlab, shuning uchun ham malika topishmoq aytganda, sen darhol bu boshmoqlar ekanini aytgin, debdi. U aynan bu sirmi tog'da trolldan eshitib olga ekan-da, lekin Logannesga bu haqda so'zlab bergisi kelmabdi.

– Nima qipti, menga qanday javob aytishning farqi yo‘q, – debdi logannes. – Balki chindan ham sening tushing asqotib qolar: axir men hamisha xudoning madad berishi haqida o‘layman-da! Biroq baribir sen bilan vidolashamiz; agar men topishmoqni topa olmasam, sen bilan qayta ko‘rishmaymiz.

Ular o‘pishib vidolashibdilar va logannes shahardagi saroya ravona bo‘libdi; saroy to‘la odam emish, hakamlar o‘rdak patidan qilingan yostiqlar qo‘yilgan oromkursilarda bosh solintirib o‘tirar, chunki ular chuqur fikrlashlari kerak ekan-da! Keksa qiroq oppoq dastro‘mol bilan ko‘zlarini artib turar ekan. Mana, malika ham kirib kelibdi; u kechagidan ham ochilib ketgan bo‘lib, hammaga salomlashgandek ta’zim qilibdi, logannesga esa qo‘l uzatib:

– Qani, salom! – debdi.

Endilikda u o‘ylab qo‘ygan topishmoqni topish kerak ekan. Yo xudo, u logannesga naqadar erkalanib tikilar ekan! Biroq logannes topishmoqqa “boshmoq” deb javob berishi bilanoq malikaning chehrasi qordek oqarib, a’zoyi badani titrab-qashay boshlabdi. Biroq u hech nima qila olmas, logannes topishmoqni boplab topgan ekan.

Obbo! Keksa qiroq sevinganidan o‘mbaloq oshib yuboribdi, butun xaloyiq qirolni va topishmoqni ilk bora topa olgan logannesni qarsaklar chalib qutlashibdi.

Yo‘ldosh o‘rtoq ham barchasi shu qadar yaxshi tugaganidan juda mamnun ekan, logannes esa keyingi safarlar ham madad berishidan umid qilib, xudoga shukronalar aytibdi.

U ertaga ham saroyga borishi kerak ekan. Oqshom xuddi kechagi kabi osoyishta o'tibdi. Logannes uyquga ketganida o'rtog'i tag'in malika-ning ortidan uchib, uni avvalgidan ham qattiqroq savalab boribdi, chunki u bu safar ikki bog'lam xip-chin olvolgan ekan-da; uni hech kim ko'rmabdi, u esa tag'in trollning maslahatini eshitib olibdi. Malika bu safar o'z qo'lqoplari haqida topishmoq aytishi kerak ekan, logannesning o'rtog'i o'z ko'rghan tushiga ishora qilib, bu javobni ham unga aytib beribdi. Logannes bu gal ham topishmoqni topibdi, saroyda shunaqangi shodiyona bo'lib ketibdiki, asti qo'yaverasiz! Xuddi kecha qiroq o'mbaloq oshganidek, bugun barcha saroy a'yonlari o'mbaloq oshishibdi. Faqat malika gapirgisi kelmay, divanda shumshayib yotibdi. Endilikda hamma gap logannesning uchinchi topishmoqni topishida qolibdi; agar topa olsa go'zal malikaga uylanar va qiroq olamdan o'tishi bilanoq butun qirollikni meros qilib olar, topa olmasa qatl etilar, troll uning chiroyli moviy ko'zlarini yer ekan.

Shu kecha logannes ko'rajak tushi uchun ibodat qilib, ertaroq to'shakka kiribdi va tinchgina uyqua ketibdi, uning o'rtog'i esa yelkasiga qanotlarni bog'lab, yoniga qilichni taqibdi-da, har uch bog'lam xipchinni olgancha saroyga uchib ketibdi.

Zim-ziyo tun bo'lib, shunday bo'ron turibdiki, tomlardan cherepitsalar⁷ uchib, bog'dagi daraxtlar shamolda xuddi qamish kabi qulab tushibdi. Tinimsiz chaqmoq chaqar, uzluksiz momaqaldiroq gum-

⁷ Cherepitsa – tomga yopiladigan sopol g'ishtcha.

burlar ekan. Butun kecha shunday davom etibdi. Mana, deraza ham ochilib, murdadek oqarib ketgan malka uchib chiqibdi; biroq u havoning avzoyidan jilmayib qo'yibdi, unga shu ham kam ekan-da; uning oppoq kamzuli shamolda kattakon yelkan kabi qappayibdi, Iogannesning yo'ldosh o'rtog'i esa uni har uch bog'lam xipchini bilan qon bo'yalguncha savalab boribdi, shu sababli malika bazo'r uchib, toqqa ham zo'rg'a yetib olibdi.

– Momaqaldiroqda tinim yo'q! Bo'ron quturib yotibdi! – debdi u. – Tug'ilganimdan beri bunaqangi buzuq havoda uydan uchib chiqmagan edim.

– Ha, rosa ta'ziringni yeganing ko'rinish turibdi!
– debdi troll.

Malika unga Iogannesning ikkinchi marta ham topishmoqni topganini aytib beribdi; agar uchinchi marta ham topsa, u yutib chiqadi, men esa qaytib bu toqqa uchib kelolmayman, jodugarlik ham qila olmayman, debdi. Ha, bu juda katta musibat ekan.

– Endi topa olmaydi! – debdi troll – Yo men shunday narsani o'ylab topamanki, uning xayoliga ham kelmagan bo'ladi, yoki u mendan ham zo'rroq sehrgar! Hozir esa raqsga tushamiz!

Shunday deya u malikaning ikkala qo'lidan tutibdi va ular boshlarida mash'alachalar likillab turgan gnomlar bilan birgalikda o'ynay ketishibdi. Qip-qizil o'rgimchaklar devor bo'ylab tepadan pastga, pastdan tepaga shodon sakrashibdi, olov gullar uchqunlar sachratishibdi, boyqush barabanni gumburlata ketibdi, chirildoqlar chirillab, qora chigirkalar garmonlarini puflay ketibdi. Ajoyib bir bazm bo'libdi!

Miriqib raqsga tushgan malika uyiga shoshilibdi, bo'lmasa uning saroyda yo'qligini sezib qolishlari mumkin ekan; troll uni kuzatib qo'yadigan bo'libdi, ana shunda ular ko'proq birga bo'lar ekanlar-da.

Ular parvoz etishibdi, logannesning o'rtog'i ularni har uchala bog'lamdag'i xipchinlar bilan savalab boribdi; troll hali hech qachon bunday jalada uchmagan ekan.

Saroy oldida u malika bilan xayrlasha turib, uning qulog'iga:

– Mening boshim haqida topishmoq ayt! – deya sekingga shivirlabdi.

Biroq logannesning o'rtog'i buni aniq-tiniq eshitibdi, malika derazadan sirg'alib ichkariga kirkach, troll ortga burilishi bilanoq, logannesning o'rtog'i uning uzun qora soqolidan tutamlagancha qilichi bilan irkit boshini naq elkasigacha uzib olibdi! Troll g'ing deyishga ham ulgurolmay qolibdi! Logannesning yo'ldosh o'rtog'i uning jasadini ko'lga uloqtiribdi, boshini esa suvga pishitib olib, so'ng ipak qiyiqchaga o'rabi-da, ushbu tugunchani ko'targancha karvonsaroya qarab parvoz qilibdi.

Ertalab logannesning o'rtog'i unga ushbu tugunchani uzatarkan, to malika topishmoq aytmaguncha uni ochmaysan, deb buyuribdi.

Kattakon saroy odamlar bilan shunchalik liq to'libdiki, igna tashlasang yerga tushmas ekan. Kengash a'zolari oromkursilardagi yostiqlarga bosh suyab o'tirishar, keksa qirol esa bashang yangi liboslar kiyib olgan, toji va sultanat hassasi qoyilmaqom qilib tozalangan ekan; biroq malikaning chehrasi

oqarib ketgan bo'lib, dafn marosimiga borayotgan-dek motamona liboslар kiyib olgan ekan.

– Qanday topishmoq aytaman? – deb so'rabdi u logannesdan.

Logannes shu zahoti tugunchani ochibdi va unda trollning irkit kallasini ko'rib o'zi ham qo'rqib ketibdi. Bu dahshatdan hamma titrab ketibdi, malikaning esa tili tanglayiga yopishib, toshdek qotib qolibdi. Nihoyat u o'midan turib, logannesga qo'lini uza-tibdi, axir u topishmoqni topgan ekan-da, malika hech kimga qиyo ham boqmasdan chuqur xo'rsin-ganicha:

– Endilikda sen mening xo'jayinimsan! Kech-qurun to'y qilamiz! – debdi.

– Mana shunisini yaxshi ko'raman-da! – debdi qirol. – Ish degani mana shundoq bo'ladi!

Xaloyiq "ura" deb qichqiribdi, saroy soqchilar harbiy musiqalarni chalibdi, qo'ng'iroqlar jarang-labdi va qandolatfurushlar to'ng'izchalar shaklidagi shirinliklar ustidan motam matolarini olib tashlashibdi, hamma yoqda shod-xurramlik ekan! Maydonga ichiga qovurilgan o'rdak va tovuq solib pishirilgan uchta buqani qo'yib qo'yishibdi, har bir kishi borib, ulardan bir bo'lak kesib olishi mumkin ekan; favoralar ajoyib sharoblarga to'ldirilibdi, kimki novvoyxonadan bir tangaga o'rama non sotib olgan bo'lsa, unga hatto oltita mayizli parmuda non qo'shib berishibdi!

Kechqurun barcha shahar chiroqlari yoqilib-di, askarlar zambaraklardan o'q uzishibdi, bolalar paqildoqlarini paqillatishibdi, saroyda esa rosa

yeb-ichishibdi, qadah cho‘qishtirishib, o‘yinga tushishibdi. Aslzoda yigitlar va go‘zal qizlar bir-birlari bilan raqs qilib, bor ovozda qo‘shiqlar aytishibdiki, bu qo‘shiqlar ko‘chadan ham eshitilib turar ekan:

*Bu yerda ko‘p sho‘xchan go‘zallar;
Barabanlar kuyi ostida
Raqs etgani kelishgan ular.
– Hoy go‘zal qiz, chirpirab o‘yna!
Shundayin bir raqs etingki siz,
To‘zg‘ib ketsin boshmoqlaringiz.*

Biroq malika hamon alvastiligicha qolgan bo‘lib, logannesni mutlaqo sevmas ekan; yo‘ldosh o‘rtoq buni ham esdan chiqarmabdi, logannesga uchta oqqush pati va allaqanday tomchilar solingan bir pufakcha beribdi-da, malika yotadigan karavot yoniga suv to‘ldirilgan jom qo‘y, jomga patlar va tomchilarni sol, malika yotmoqchi bo‘lganda uni sekingga jomga itarib yubor va suvga uch marta pishitib ol, ana shundagina u jodudan xalos bo‘ladi va seni qattiq sevib qoladi, deb buyuribdi. Logannes hammasini xuddi yo‘ldosh o‘rtog‘i aytganday qilibdi.

Malika jomga qulab tushib, dodlab yuboribdi va ko‘zları yonib turgan kattakon, qop-qora munga o‘xshash oqqush shakliga kirib, logannesning qo‘llariga yopishib olibdi; ikkinchi martasida u suvdan bo‘ynida ensizgina qora halqasi bor oppoq oqqushga aylanib chiqibdi; logannes duo o‘qigancha uni uchinchi marta suvga pishitib olgan ekan, u shu zahoti tag‘in go‘zal malikaga aylanib qolibdi.

Hatto u avvalgidan ham chiroyli qiyofaga kiribdi va jodudan xalos etgani uchun jozibali ko‘zları yoshga to‘lgancha Iogannesga rahmatlar aytibdi.

Ertalab keksa qirol barcha mulozimlari bilan ularni tabriklagani tashrif buyuribdi. Hammadan keyin qo‘lida hassa va yelkada to‘rvasi bilan Iogannesning yo‘ldosh o‘rtog‘i kirib kelibdi. Iogannes uni o‘pib, shu yerda qolishini iltimos qilibdi, chunki o‘z baxtini topgani uchun undan minnatdor ekan-da! Biroq o‘rtog‘i norozi qiyofada boshini sarak-sarak qilib, mehr va yumshoqlik bilan bunday debdi:

– Yo‘q, mening fursatim yetdi! Men faqat sening oldingdagi qarzimni uzdim. Yovuz odamlar tahqir-lamoqchi bo‘lgan huv sho‘rlik marhum yodingdam? Sen uni tobutda bezovta qilmasliklari uchun bor-budingni bergen eding. O‘sha marhum men bo‘laman!

Shunday deya u darhol ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

To‘y-tantana rosa bir oy davom etibdi. Iogannes va malika bir-birlarini qattiq sevib qolishibdi, keksa qirol esa Iogannes qirrollik qilgan bir davrda jajji-jajji nabiralarini o‘zining saltanat hassasi bilan ovutgancha uzoq va baxtiyor umr kechiribdi.

MUNDARIJA

Dyuymchaxon.....	3
Sandiq-samolyot.....	23
Yo'ldosh o'rtoq	33

Adabiy-badiiy nashr

HANS KRISTIAN ANDERSEN

DYUUMCHAXON. SANDIQ-SAMOLYOT. YO'LDOSH O'RTOQ

Ertaklar

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhih
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 05.02.2019-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 2,0+vlk.0,125. Sharqli bosma tobogi 3,36+vlk. 0,21.
Garnitura "Suvenir". Ofset qog'ozi.
Adadi 20000 (I zavod 5000) nusxa. Buyurtma № 29.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.
«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi - (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.
Marketing bo'limi - (98) 128-78-43; (93) 397-10-87.
Faks - (71) 273-00-14;
e-mail: yangiasravlod@mail.ru

Hans Kristian ANDERSEN

DYUYMCHAXON
SANDIQ-SAMOLYOT
YO'LDOSH O'RTOQ

